



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**IJTIMOIIY PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA MAKTABGACHA TA'LIM**  
**KAFEDRASI**

**“Himoyaga tavsiya etildi”**  
**Pedagogika-psixologiya fakulteti**

dekani \_\_\_\_\_ dots.T.Rasulov  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2012 yil.

**PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKULTETI kunduzgi bo'lim**  
**5140800 - Pedagogika-psixologiya yo'nalishi**  
bitiruvchisi  
**HASANOVA YULDUZ BOBOMURADOVNAning**  
bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

**“TARBIYA TEXNOLOGIYASINING NAZARIY-AMALIY**  
**ASOSLARI” MAVZUSIDAGI**

**BITIRUV MALAKAVIY**  
**ISHI**

**Ilmiy rahbar:**

**katta o'qituvchi Yuldasheva Yulduz**

**QARSHI – 2012**

# MAVZU: TARBIYA TEXNOLOGIYASINING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI

## REJA

**KIRISH**.....3-6-betlar

### **I bob. TARBIYA TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI**

**I.1. TARBIYA – BARKAMOL AVLODNI SHAKLLANTIRISHNING BOSH OMILI**  
.....7-16-betlar

**I.2. TARBIYA QONUNIYATLARI VA TARBIYA MAZMUNI TAMOYILLARINI  
MODELLASHTIRISH**.....17-32-betlar

### **II bob. TARBIYA TEXNOLOGIYASINING AMALIY ASOSLARI**

**II.1. BO’LAJAK O’QITUVCHINING TARBIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA  
FAOLIYAT OLIB BORISHI** .....33-39-betlar

**II.2. TARBIYA TEXNOLOGIYALARINI QO’LLASHDA PEDAGOGIK VOSITA VA  
METODLARDAN FOYDALANISH**.....40-46-betlar

**TARBIYAVIY TADBIR ISHLANMASI**.....47-51-betlar

**UMUMIY XULOSA**.....52-54-betlar

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI**.....55-56-betlar

## KIRISH

Mustaqil Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, zamon talablari bilan uyg'unlashtirilgan, jahon andozalari darajasiga mos "milliy model"ni hayotga tadbiiq qilishga, ma'naviyatimizni yanada yuksaltirishga qaratilgan.

Bu esa o'z navbatida talabalarning umumpedagogik bilim darajasini kengaytirishni, ma'naviy va intellektual meroslarimizga to'g'ri munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Ma'lumki, bugungi kunda pedagogikani insonparvar pedagogikaga aylantirish ta'lim sohasining muhim masalasiga aylanib qoldi. Shuning uchun ham ta'limni insonparvarlashtirish orqali yuzaga kelgan mavjud muammolarni oqilona hal etib borish yangicha ishlashni, yangi pedagogik tafakkurni shakllantirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish kelajakda o'qituvchilik kasbini egallaydigan yangi avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil qatnasha olish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Mazkur vazifalarni bajarishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati o'ta salmoqlikdir.

Ijtimoiy hayotdagi mafkuraviy jarayonlar pedagogik voqelikni aks ettiradigan ta'limiy faoliyat loyihalarini asoslaydigan fan sohasi, tasavvurlarini qamrab olmasdan iloji yo'q. «Yangi pedagogik bilimlar ko'lemi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida kengayib bormoqda, tadqiqot yo'nalishlari erkin shaxsni shakllantirish muammolariga qaratilyapti»<sup>1</sup>, deb ta'kidlaydi professor Nurali Sayidahmedov.

Haqiqatan ham yangi pedagogik bilimlar ko'lemi bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimida yangicha metodologik yondashuvlarni yuzaga keltirayotir.

**Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi:** Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish o'quvchilar tomonidan mavjud ilmiy bilimlarni puxta o'zlashtirilishini kafolatlovchi yondashuv hisoblanadi. Bizga yaxshi ma'lumki, «ta'lim texnologiyasi» tushunchasi ta'lim jarayonining mohiyati, uning bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida kechadigan ta'limiy munosabatlarning mazmunini anglatishga xizmat qiladi.

«Pedagogik texnologiya» tushunchasi esa o'z mohiyatiga ko'ra pedagogik faoliyatning eng muhim ikki jihati, ya'ni *ta'lim* hamda *tarbiya* jarayonining texnologiyalashtirilishini ifoda etishi zarur. Biroq so'nggi yillar mobaynida yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik faoliyatni

<sup>1</sup> Sayidaxmedov.N. Texnologik yondashuv ustuvorligi. //Ma'rifat, 2003 y, 19 fevral.

uyushtirish jarayonida ulardan foydalanish mavzusida yaratilgan manbalarning deyarli barchasida ta'lim jarayonining texnologiyalashtirish muammosi uchun asosiy ob'yekt tarzida qabul qilinganligining guvohi bo'ldik.

Holbuki, barkamol shaxsni shakllantirish muammosining ijtimoiy zaruriyat sifatida e'tirof etilayotganligini nazarda tutadigan bo'lsak, tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirish, mazkur jarayonni texnologiyalashtirishga erishish muhim pedagogik vazifalardan biri ekanligini yanada chuqurroq anglaymiz.

Shu nuqtai nazardan bitiruv malakaviy ishini «Tarbiya texnologiyasining nazariy-amaliy asoslari» mavzusida olib borish lozim topildi.

#### **Bitiruv malakaviy ishi mavzusining maqsadi va vazifalari:**

- Barkamol shaxsni shakllantirish muammosini ijtimoiy zaruriyat sifatida e'tirof etish;
- Tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirish;
- Tarbiya jarayoniga mujassam holda, tizimli yondoshish mohiyatini asoslash;
- Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishga erishishning nazariy va amaliy asoslarini ochib berish;
- Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, muhim tamoyillari, amaliyotini ilmiy asoslash;
- Tarbiyalanuvchilarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- Ta'lim muassasalarining har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish;
- Tarbiya texnologiyasini rivojlantirish uchun malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash tizimini o'rganish;
- Tarbiya texnologiyasining samarali pedagogik-psixologik uslublarini izlash va joriy etish;
- Tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali maslahat xizmati ko'rsatish imkoniyatlarini yaratish;
- Tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirishga, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga nisbatan ijodiy va mas'uliyatli yondashish zarurligini tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarga anglatish kabilar.

**Tadqiqot predmeti:** Tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv va uni loyihalash tizimi.

**Tadqiqot ob'yekti:** Bo'lajak o'qituvchining tarbiya texnologiyalari asosida faoliyat olib borish jarayoni.

**Tadqiqot usullari:** ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, o'quv-uslubiy hujjatlarni o'rganish, tarbiyaviy tadbir o'tkazish amaliyotini kuzatish, sintezlash, maqsadli suhbat, amaliy metodlar va boshqalar.

#### **Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiliklari va erishiladigan natijalar:**

Tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari hamda o'ziga xos jihatlari xususidagi mavjud nazariy va amaliy g'oyalarga, pedagogik bilimlarga tayangan holda tarbiya texnologiyasi ishlab chiqiladi, tarbiya jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish takomillashadi, barkamol shaxsni shakllantirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj ma'lum ma'noda qondiriladi.

**Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati:**

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishdan asosiy maqsad – komil shaxsni shakllantirish uchun poydevor bo'lgan pedagogik jarayonni takomillashtirish, insonparvarlashtirish, tarbiyalanuvchining mustaqilligini ta'minlash, ularda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, mustaqil fikrlash hamda ijodkorlik qobiliyatining tarbiyalanishi uchun imkoniyat yaratishdir.

**Bitiruv malakaviy ishning hajmi:** Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, to'rt bo'lim, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

## 1.1. TARBIYA – BARKAMOL AVLODNI SHAKLLANTIRISHNING BOSH OMILI

**Tarbiya** – har bir shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan aqliy-jismoniy, badiiy-estetik va axloqiy-ma'naviy xususiyatlarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan azaliy va abadiy qadriyatdir. Alohida odam ham, butun insoniyat ham tarbiyasiz mavjud bo'lolmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar avloddan avlodga tarbiya tufayligina o'tadi.

Ilmiy adabiyotlarda «tarbiya» amatasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. *Keng ma'noda* tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar majmuini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni, balki butun ijtimoiy to'zum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqa vositalar orqali singdiriladigan mafkurasini ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ta'lim olish va ma'rifatlilikni ham qamrab oladi. Zero, tarbiya ta'limga nisbatan kengroq bo'lgan tushunchadir.

*Tor ma'noda* tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan maxsus faoliyatni anglatadi. Bunda tarbiyaning oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ta'lim olish va ma'rifatga erishish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bogliq holda mavjud bo'lishi hisobga olirishi lozim. Chunki ta'lim olish va ma'rifatga erishish kechimida shaxsning bilimi ko'payishi ko'pincha bu shaxsda ezgu axloqiy-ma'naviy sifatlarni qaror topishini ham tezlashtiradi.

**Tarbiya** har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlikka yo'z tutadi va oqibatda inqirozga mahkum bo'ladi. Negaki, har qanday jamiyatning o'sib, rivojlanishi uchun moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun har bir avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlaridan yaxshiroq darajaga ko'tara bilish kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlar shakllantirilishi uchun jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy institutlar tizimiga ega bo'lishi taqozo etiladi.

**Tarbiya** tushunchasi millat tarixi va jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo'lib, har xil izohlanadi. Sho'ro zamonida tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa

sifatida yondashilgan. Shuning uchun ham turli sinf va ijtimoiy tabaqalarning tarbiyasi o'zgacha bo'ladi hamda bir-biriga qarama-qarshi turadi, degan qarash hukmronlik qilgan. Xolbuki, dunyo tarbiyashunosligi va o'zbek xalq pedagogikasi tajribasi tarbiyaning sinfiy ko'rinishga ega emasligini isbot etadi. Chindan ham ezgulik va yovo'zlikning mohiyati har qanday ijtimoiy sinf vakili uchun ham bir xildadir.

Kommunistik mafkura tarbiyada ijtimoiy muassasalarning o'rniga ortiqcha baho berib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida irsiy va biologik xususiyatlarning o'rnini borligini mutlaqo inkor qilgan. Hukmron kommunistik mafkura tarbiya vositasida har qanday odamni istagan ijtimoiy qiyofaga solish mumkin degan qarashga tayanganligi uchun ham uning shaxs shakllanishidagi o'rniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsidagi irsiy va biologik xususiyatlarning hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga mahliyo bo'lishday xatolikka olib keldi. Buning natijasida tarbiya makon-manzilsiz bo'lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istagan ijtimoiy qolipga solinishi mumkin bo'lgan qiyofasiz ob'yekt sifatida qarash qaror topdi. Bu hol sho'ro tarbiyasining samarasizligiga olib keldi. Chunki tarbiyaning asosiy ob'yekti bo'lmish shaxs tabiatining o'ziga xosligi unutilgandi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiyani izohlashda g'ayriilmiy sinfiy-partiyaviy yondashuvdan voz kechilib, unga bog'liq jarayonlarga yangi sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Endilikda tarbiyaning irsiy-biologik jihatlari va milliylikiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, mutafakkirlarning pedagogik qarashlari tizimi sinchkovlik bilan o'rganilmoqda. Bu hol mamlakat pedagogika ilmi hamda amaliyotida irsiy va biologik omillar ham hisobga olinishiga sabab bo'lmoqda.

**Tarbiya** amalga oshirilish o'rnini va bu kechimda qanday odamlar qatnashishiga ko'ra ijtimoiy va oila tarbiyasi kabi turlarga bo'linadi. Ijtimoiy tarbiya maxsus muassasalar tizimida alohida tayyorgarlikka ega mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan pedagogik jarayonni anglatadi. Oila tarbiyasi esa tarbiyalanuvchi doimo yashaydigan joy bo'lmish oilada yuzaga keladi. Sho'ro davrida ijtimoiy tarbiya birlamchi sanalib, oila tarbiyasiga ikkinchi darajali qo'shimcha tadbirlar tizimi sifatida yondashilardi. Bu hol har bir shaxs ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishdagi asosiy institut bo'lmish oilaning tarbiyaviy funksiyasi susayishiga olib keldi. Endilikda oila tarbiyasining nafaqat o'ziga xos o'rnini borligi, balki u tarbiya jarayonida ustuvor mavqeda bo'lishi kerakligi tan olinib boshlandi.

Oila tarbiyasi muayyan oiladagi kattalarning o'z tasavvurlariga ko'ra, bolalarda shakllantirilishi lozim deb hisoblangan aqliy-jismoniy, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-estetik sifatlarni qaror toptirishga qaratilgan, onglik darajasi va pedagogik natijasi turlicha bo'lgan harakatlar tizimidan iboratdir. Shu ma'noda oila tarbiyasini shaxsni ijtimoiylashtirishning bir

qadar nazorat qilinadigan yo'li deyish mumkin. Negaki, oila tarbiyasi shaxsni ma'lum darajada muayyan jamiyatda yashay olishga tayyorlashga xizmat qiladi.

Oila tarbiyasi samaradorligi oilaning ijtimoiy mavqei, ma'rifat darajasi, moddiy imkoniyati, tayanadigan ma'naviy qadriyatlari tizimiga bog'liq. Oila tarbiyasida tayanilgan omillarning qandayligiga qarab, shaxs ijtimoiylikka moyil, ijtimoiylikka befarq, aksilijtimoiy bo'lib shakllanishi mumkin. Har qanday jamiyat taraqqiyotini unda ijtimoiylikka moyil shaxslarning ko'pligi ta'minlashidan kelib chiqiladigan bo'lsa, oila tarbiyasi qanchalik katta mavqega egaligi ayon bo'ladi.

Oila tarbiyasi samaradorligi ko'p jihatdan undagi shaxslik imkoniyatlari qanday ekaniga bog'liq bo'ladi. Oiladagi shaxslik imkoniyatlari, bir tomondan, oilaning tarkibi (to'liq yo to'liqsiz, ko'pbolali yoki kambolali, aka-uka, opa-singil, bobo-buvi singari yaqin qarindoshlarning bor yoxud yo'qligi)ga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, oiladagi kattalar dunyoqarashining sog'lomligi, ma'rifiy-intellektual darajasining yuqoriligi, qiziqish doirasining kengligi, moddiy holati kabi omillarga bog'liqdir. Oiladagi kattalarning kichiklarga to'g'ri munosabatda bo'lishi ham oila tarbiyasi samaradorligini ta'minlaydigan muhim omillardan biridir.

Shaxslik imkoniyatlari oila tarbiyasining maqsadiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi shaxslik imkoniyatlaridan kelib chiqib, oila tarbiyasi oldiga yo'nalishi, mazmuni va tabiatiga ko'ra turlicha maqsadlar qo'yiladi. Oila tarbiyasi o'z oldiga kichiklarda shaxsiy gigiyenik malakalar, maishiy ko'nikmalar, muomala va axloq madaniyatini shakllantirish; jismoniy, intellektual va hissiy rivojlantirishni ta'minlash; alohida qobiliyatni o'stirish, kasbga tayyorlash kabi maqsadlarni qo'yishi mumkin. Mazmuniga ko'ra oila tarbiyasi maqsadi aniq natijalarni qo'lga kiritishga qaratilgan o'ta amaliy yoki yoshlarda ruhiy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan keng qamrovli bo'ladi. Lekin tarbiya har doim ham jamiyat xohish-irodasiga muvofiq kelavermasligi mumkin. Ba'zi oilalarda kichiklarga individualizm, xudbinlik, toshbag'irlik, boshqalar bilan hisoblashmaslik, o'zgaralar istagini e'tiborga olmaslik kabi illatlarni shakllantirishga qaratilgan tarbiya ham kuzatiladi.

Oila tarbiyasi tabiatini undagi katta va kichiklar o'rtasida qaror topgan o'zaro munosabatlarning qandayligidan kelib chiqib, avtoritar va demokratik kabi turlarga ajratish mumkin. Oila tarbiyasining bu ikki yo'nalishi son-sanoqsiz o'ziga xos ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkinligi ham ko'zda tutilishi lozim. *Avtoritar* oila tarbiyasi uchun kattalarning kichiklarni o'z irodalariga maksimal darajada bo'sundirishga intilishi xosdir. Bunday yondashuvda oiladagi kattalar kichiklardan o'zlariga to'la va so'zsiz buysunishni, o'zlarining har qanday talablarini quloq qoqmay bajarishni, ayni vaqtda, hech qanday tashabbus ko'rsatmaslikni talab qilishadi. Avtoritar yondashuvda kattalar kichikning xatti-harakatlari, xulqi, hatto

istaklarini ham nazorat qilishga urinishadi. Kattalar o'zlarini har qanday xatodan xoli hisoblashadi. Bunday yondashuvda muomala-munosabat beistisno va to'ligicha kattalardan kichiklar tomon bo'ladi. Bunday tarbiya usuli kichiklarda kattalardan qo'rqish, begonasirash, atrofdagilarga dushmanlik bilan qarash kayfiyatini paydo qilishi mumkin.

Oila tarbiyasida *demokratik* yondashuv kattalarning kichiklar bilan iliq, do'stona munosabat o'rnatishga intilishi, kichiklarning mustaqil tashabbuslarini imkon qadar qo'llab-quvvatlashga harakat qilishi tarzida namoyon bo'ladi. Kichiklarga ishonish, ko'r-ko'rona nazorat qilishdan ko'ra ularni tushunishga intilish, ma'qullash va rag'batlantirish orqali kichiklardagi tashabbus va mustaqillikni ko'zgashga urinish bolalarda o'ziga ishonch paydo qiladi. Bunday yondashuvda tarbiya ikki tomonlama jarayonga aylanadi: kattalar kichiklarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatsalar, o'z paytida kichiklar turli tashabbuslar bilan chiqadi, mustaqil yo'sinda o'zlarida ezgu ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga intilishadi. Bunda muloqot kattalardan kichiklarga qarab yo'naltirilganidek, kichiklardan kattalarga tomon ham yo'naltirilib, ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi.

Shuni hisobga olish kerakki, eng yaqin kishilar qurshovida amalga oshirilgani uchun shaxsning ma'naviy-axloqiy sifatlarini qaror toptirishda oila tarbiyasi alohida mavqega egadir. U muntazam va uzluksiz ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lgan amaliy tadbirlar majmuidan iborat bo'lgani sababli tez samara keltiradi. O'zbek oilalaridagi oila tarbiyasida ayollarning alohida o'rni bor. Juda qadim zamonlardan o'zbek oilalarida bola tarbiyasi bilan ayollar shug'ullanishgan. Erkaklar, ayniqsa, otalar tarbiya jarayonida ko'proq bavosita, ya'ni onalar orqali ishtirok etishgan. O'zbek ayollari bolalarga otalarni juda sirli, oila va uning a'zolariga doir barcha ikir-chikirlardan ham xabardor bo'lavermasligi kerak bo'lgan dono va qattiqqo'l zot sifatida ko'rsatishgan. Onalar o'z bolalarida otalarga hurmat, muhabbat, iftixordan tashqari, otadan cho'chib turish tuyg'usini ham uyg'otishga alohida e'tibor berishgan. Shuning uchun ham bolalarga: «Otang bilib qolmasin!», «Otang bilsa, nima qilamiz?», «Otang bilib qolguday bo'lsa, yomon bo'ladi!» tarzidagi yondashuvlarni singdirishgan. Har qanday xatti-harakatning otalar nuqtai nazaridan baholanishi natijasida o'zbek oilalaridagi tarbiya jarayoni ancha samarali va bir qadar yengilroq kechgan.

Oila tarbiyasi samarali bo'lishida har bir oilada o'rnatilgan turg'un an'analarga ham muhim o'rin tutadi. An'analarga amal qilish va unga loyiq bo'lishga urinish kichiklarda muayyan ezgu shaxslik sifatlari shakllanishiga yordam beradi. Xullas, keyingi davrda shaxs shakllanishida oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiyadan kam bo'lmagan mavqega ega ekanligi anglab etildi. Bu hol oila a'zolari, kattalar, ayniqsa, ayollardan o'ta xushyorlik bilan ish olib borishni taqozo etadi.

Pirovardida shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi davrda mamlakatimizda samarali tarbiya va ta'lim uyg'unlashib, barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan. Mana shu yo'nalish bizning

yurtimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yigit-qizlarni XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratib borilmoqda. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi so'zlarini eslash joizdir: «Albatta, ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi...


...Har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim...» (Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- 2008, 61-bet).


Bizga yaxshi ma'lumki, **tarbiya** jarayoni uzoq muddatli, murakkab, uzluksiz bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Garchi zamonaviy ta'lim texnologiyasi o'quvchining ta'lim jarayonidagi yetakchilik rolini yoqlayotgan bo'lsa-da, **tarbiya** jarayonida tarbiyalanuvchi asosiy mavqeini egallay olmaydi. Chunki unda xarakter, dunyoqarash yetarlicha shakllanmagan bo'lib, u bu borada tarbiyachining yordamiga ehtiyoj sezadi. Shu bois tarbiya texnologiyasi ham mantiqiy, ham tarkibiy jihatdan ta'lim texnologiyasidan farq qiladi.

Tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari hamda o'ziga xos jihatlari xususidagi mavjud nazariy va amaliy g'oyalarga, pedagogik bilimlarga tayangan holda tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- tarbiya jarayonining umumiy loyihasi;
- tarbiyani tashkil etishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj (rag'bat);
- tarbiya maqsadi;
- tarbiya mazmuni (shakl, metod, usul va texnik vositalar);
- tarbiyachi faoliyati;
- tarbiyalanuvchi faoliyati;
- tarbiya samarasi (natija).

Ushbu fikrlar asosida tarbiya texnologiyasining tarkibiy tuzilmasi tasvirda quyidagicha namoyon bo'ladi (1-chizma).





1-chizma. Tarbiya texnologiyasining tarkibiy tuzilmasi.

**Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish aniq maqsadga va ijtimoiy g'oyaga asoslangan hamda tarbiyalanuvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirilishi demakdir.**

Ta'lim jarayonidan farqli ravishda, tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda mazkur jarayonning samarasini qisqa muddat oraligida ko'ra olish imkoniyati yo'q. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi o'rtasida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlar tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirishga nisbatan ijodiy va mas'uliyatli yondashish zarurligini taqozo etadi.

Masalan, umumiy o'rta ta'lim muassasalari amaliyotidan ma'lumki, uzoq yillar davomida mazkur muassasada faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning ko'pchiligi tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishga nisbatan «tarbiyaviy ishlar rejasida belgilangan tadbirlarni o'tkazishga majburman» kabilida yondashib kelganlar. Ularning asosiy e'tibori o'zlari rahbarlik qilayotgan sinf yoshlarini avvaldan tayyorlangan stsenariyni yod olish va unga qat'iy amal qilishga majburlash, shuningdek, «maktab ma'muriyati hamda jamoasi oldida izza bo'lib kolishga yo'l qo'ymaslik» tamoyiliga muvofiq tarbiyaviy tadbirni uyushtirishga karatilgan edi. Endilikda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishiga nisbatan bunday yondashuvlardan voz kechish maqsadga muvofiq. Zero, tayyor ssenariy asosida muayyan tadbirlarni tashkil etish jarayonida uning asosiy sub'ektlari bo'lgan yoshlar faol ishtirokchi va tadbir natijasini belgilovchi shaxs sifatida emas, balki oddiy ijrochi sifatida qatnashadilar. Bu holat esa bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Xususan:

1. yoshlarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishiga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi;
2. yoshlarda mustaqil fikrlash hamda ijodkorlik qobiliyatining tarbiyalanishi uchun imkoniyat yaratilmaydi;
3. yoshlarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishi ularning shaxs sifatida kamol topishlarini ta'minlashga yo'naltirilganligi haqida emas, balki sinfning ta'lim muassasasi jamoasi oldida «soxta obru» orttirish uchun xizmat qiluvchi vosita ekanligi to'g'risidagi xulosaning shakllanishi uchun sharoit yuzaga keladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiluvchi tarbiyaviy tadbirlarga nisbatan texnologik yondashuv quyidagi xolatlarning namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi: tarbiyaviy tadbir mavzusi va g'oyasini yoshlar tomonidan bildirilgan shaxsiy tashabbuslar, ularning xohish-istaklariga kura belgilash; tarbiyaviy tadbir stsenariysini ishlab chikishda yoshlarning mustaqil

faoliyat yuritishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish; tarbiyaviy tadbir mazmunida o'z ifodasini topgan rollarning majburiy tarzda emas, balki yoshlarning layoqati, qobiliyati, shuningdek, kizikishlarini inobatga olish asosida taksimlanishiga erishish; tarbiyaviy tadbirning tashkil etilishi va o'tkazilishida o'qituvchining roli buyruk berishdan iborat bulmay, aksincha, yoshlarga yo'l-yurik ko'rsatish, ularning faoliyatini yo'naltirib turish hamda zarur urinlarda maslaxat berish sifatida aks etishiga erishish; tarbiyaviy tadbir maqsadining natijalanganligini sinf, gurux yoshlarining faol ishtirokiga tayangan xolda muxokama qilish, muxokama jarayonida o'qituvchi tomonidan turli tanbexlarning berilishiga yo'l qo'ymaslik, aksincha yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarning yoshlarning o'zlari tomonidan aniqlanib, ularni bartaraf etish (keyingi tadbirni o'tkazish jarayonida ularning takrorlanishining oldini olish) yo'lida chora-tadbirlarni belgilash muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda mazkur jarayonni loyihalashtirish hamda uning asoslarini belgilash muhim ahamiyatga ega. Tarbiya jarayonini loyihalash quyidagi boskichlarda kechadi:

- 1) tarbiyaviy tadbir mavzusiga doir materialni yig'ish;
- 2) tarbiyaviy tadbir maqsadi va vazifalarini belgilash;
- 3) tarbiyaviy tadbirning mazmunini ishlab chiqish;
- 4) tarbiyaviy tadbir shakli, metodlari va vositalarini tanlash;
- 5) tarbiyaviy tadbirni tashkil etish va o'tkazish (davomiyligi) vaqtini belgilash;
- 6) tarbiyaviy tadbir ssenariysini ishlab chiqish;
- 7) yoshlar faoliyatini nazorat qilish, ularning faollik darajalarini norasmiy (yoshlarni bu haqda xabardor qilmasdan) baholash;
- 8) loyihani amaliy faoliyatda qo'llash;
- 9) tarbiyaviy tadbirni tashkil etish jarayoni;
- 10) tarbiyaviy tadbirning o'tkazilish xolati (samarali, samarasiz, muvaffaqiyatli, muvaffaqiyatsiz kechganligi)ni muhokama qilish va yakuniy xulosa chiqarish.

Bu jarayonda tarbiyaviy tadbirlarning tashkil etilishiga nisbatan texnologik yondashuv mohiyati yoshlar mustaqilligini ta'minlashda quyidagi omillarning mavjudligiga e'tiborni qaratishni ham taqozo etadi:

- yoshlarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishiga nisbatan ichki ehtiyoj, qiziqish va rag'batning mavjudligi;
- yoshlarning tarbiyaviy tadbirlarni mustaqil tashkil etish borasida muayyan tajribalarga ega ekanliklari;
- tarbiyaviy tadbir g'oyasining yoshlar ichki ehtiyojlariga mos kelishi.

Ta'lim muassasalari amaliyotida yuqorida bayon etilgan omillarni inobatga olish va shu asosida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish ularning muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlab qolmay, balki yoshlarda ularning o'tkazilishiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi, ma'naviy-axloqiy sifatlarning tarbiyalanishi uchun qulay sharoitni hosil qiladi.

## **I.2. TARBIYA QONUNIYATLARI VA TARBIYA MAZMUNI VA TAMOYILLARINI MODELLASHTIRISH.**

**MODELLASHTIRISH** - obyektlarda ijtimoiy reallikning muayyan qismlarini tadqiq etish uslubi hamda predmetlar va hodisalarning real mavjud bo'lgan hamda quriladigan modellarini o'rganish va ishlab chiqishdir. Shunday ekan, tarbiya texnologiyalarini ham ishlab chiqish va amalga oshirishda modellashtirishdan foydalanish, ularni yaxlit pedagogik hodisa sifatida uslublarini o'rganib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Modellashtirishning shakli va qo'llanilishi foydalaniladigan modellar va ularni qo'llash sohasiga bog'liq. Tarbiya texnologiyalarining samaradorligini oldindan ko'ra bilish yoki loyihalashtirishda va tadqiq etishda modellashtirishdan foydalanish to'g'risidagi muammo "pedagogik modellashtirish" nomini olgan.

Modellar xarakteriga ko'ra predmetli va belgili (informatsion) modellashtirishga bo'linadi. Shartli ravishda ular asl obyektning belgilangan funksional xususiyatlarini ifodalaydi.

Pedagogik faoliyatda maxsus reja asosida olib boriladigan tadqiqot modellari **predmetli modellashtirish** deb ataladi.

Jadvallar, chizmalar, formulalar kabi modellar **belgili modellashtirish** sifatida namoyon bo'ladi.

Modellashtirilishi lozim bo'lgan obyektning xarakteri va yosh xususiyatlariga ko'ra, avvalo, uning xutq-atvori (unda kechadigan tarbiyaviy jarayonlarga amal qilinishi) modellashtiriladi. Bunda tarbiya texnologiyasining quyidagi ikkita muhim jihatini e'tiborga olish zarur:

1. Barcha tarbiyalanuvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan tarbiyaviy jarayonni modellashtirish.

2. Pedagogik faoliyatda mukammal tarbiyalanishi mumkin bo'lmagan tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan o'zaro tarbiyaviy faoliyatni modellashtirish.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda pedagogik jarayon shaxsda belgilangan sifatlarning shakllanishiga qaratiladi.

**Pedagogik jarayon** - bu belgilangan maqsadga erishish hamda shaxsning xususiyat va sifatlarini ijobiy tomonga o'zgartirishga qaratilgan tarbiyasi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi aniq bir muddat va ma'lum tarbiyaviy tizimda maxsus tashkil etilgan o'zaro munosabatdir.

**Jarayon** (lotincha protsessis – oldinga intilish) holat davomiyligi, insonning rivojlanishi, biror bir natijaga erishishi yo'lidan davom etayotgan harakatlar jamlanmasi.

**Pedagogik jarayon** – tarbiya jarayonining asosiy tizim birligi: uning xususiyati shundan iboratki, u tarbiyachi va tarbiyalanuvchining pedagogik munosabat tizimini belgilaydi.

Agar tarbiya jarayoni tushunchasi maqsadga yo'naltirilgan, shaxsga ma'lum sifatlarni shakllantirish ta'sirini amalga oshirishga qaratilgan harakat bo'lsa, pedagogik jarayon tushunchasi oldindan tashkil etilgan tarbiyaning o'zaro ta'sir tizimini bildiradi.

Pedagogik jarayonni shakllantirish va tashkillashtirishning asosiy prinsiplari.

- tarbiyaga yaxlit yondoshish prinsipi;
- uzluksiz tarbiya prinsipi;
- tarbiyani maqsadga yo'naltirish prinsipi;
- pedagog va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati prinsipi;
- tabiiy muvofiqlik prinsipi;
- madaniy muvofiqlik prinsipi;
- faoliyat va jamoadagi tarbiya prinsipi;
- ta'lim va tarbiyada davomiylik, batartiblilik prinsipi;
- pedagogik jarayonda o'z-o'zini boshqaruv prinsipi kabilar.

Tarbiyaviy jarayonni modellashtirishda o'quvchilarning hayoti va faoliyatini ta'lim muassasalarida pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish uchun, ularning tashqi ta'sir etuvchi omillarga nisbatan ta'sirchan munosabatda bo'lishini unutmaslik kerak. Pedagog va psixolog olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, shaxsga tashqi omillarning o'zaro (xoh salbiy, xoh ijobiy bo'lsin) ta'siri avvalo o'quvchilarning o'zaro munosabatlariga bog'liq. O'quvchilarning tarbiyaviy faoliyatini uyushtirayotganda o'qituvchi yoki tarbiyachi tashqi ta'sir etuvchi omillarga nisbatan tarbiyalanuvchining munosabatini, kechinmalarini, qanday anglashini, baholashini ulardan o'zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur.

Tarbiya jarayonini modellashtirishda o'quvchining nafaqat ongi, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borishga erishish lozim, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keluvchi xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilarning ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonga faol kirib borishlarini o'z xohish-istaklari bilan tarbiyaviy faoliyatga faol ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi.


Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali o'quvchilarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Ushbu faoliyatni modellashtirishda o'qituvchi o'quvchilar jamoasining manfaati va talab istaklarini e'tiborga olishi zarur. Bola o'z xulqi, xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo'lib qoladi.

Ushbu holatlar tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Jamiyatda axborot kommunikatsion texnologiyalarning jadal sur'atlarda rivojlanib borishi natijasida o'quvchilar ko'p vaqtlarini ta'lim va tarbiyaga mutlaqo aloqasi bo'lmagan kommunikatsion texnologik ma'lumotlarga sarflamoqdalar (modul telefonlar, internet, kompyuter, DVD filmlar va boshqalar). Ushbu vositalardan oqilona foydalanishni o'quvchiga o'rgatish, ta'qiqlangan texnik vositalardan foydalanishni man etish, ularni nazorat qilish o'qituvchilar va ota-onalarning hamkorlikdagi vazifalariga kiradi. O'quvchilarning ko'p vaqtlarini olayotgan keraksiz texnik ma'lumotlarni bartaraf etish uchun faqat modellashtirish asosida ish olib borish mumkin. O'qituvchining tarbiyaviy ishlar rejasida ushbu muammolar yo'zasiidan turli mavzudagi suhbatlar uyushtirish rejasi o'rin olishi lozim.

Bu jihat unutilsa, muayyan qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Aks holda, xulq me'yorlari, axloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasida o'quvchi ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ma'lumotlarga va tashqi ta'sirlarga tez beriluvchan bo'lib qolishi mumkin.

Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy to'zum buyurtmasi asosida belgilangan

tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishda ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi. Ushbu g'oyalar yaxlit tarzda quyidagicha aks etadi:



2 - chizma. Tarbiyaviy jarayonni modellashtirish

Tarbiyani samarali modelashtirish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini, har bir o'quvchining tarbiya jarayonidagi faoliyatini yaxshi bilish kerak. Buning uchun o'qituvchi quyidagi holatlarni unutmasligi lozim:

- tarbiyalanuvchi ruhiyatini puxta bilish;
- ota-onalar bilan mimtazam aloqada bo'lib, ular ishtirokida o'quvchi bilan tarbiyaviy mazmunda suhbatlar o'tkazish;
- o'quvchining ichki dunyosini, xarakterini bilmasdan u bilan qo'pol muomalada bo'lmaslik, sodir etilgan xatoliklarni kechira olish;
- o'quvchining qiziqishlarini, uni o'rab to'rgan tashqi muhitni doimiy nazorat qilish;
- o'quvchini qat'iy kundalik rejimga o'rgatish va uni kuzatib borish;
- iste'dodini, qobiliyatini va o'zi tanlagan kasbga moyilligini e'tiborga olib uni takomillashtirish;
- o'quvchining bola ekanligini, adashishga, ba'zan xatoliklarga yo'l qo'yishini unutmaslik, ushbu salbiy holatlarni kechiktirnasdan tuzatib borish.

Shaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga ega bo'lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldindan modellashtirilgan va puxta o'ylangan rejalar asosida belgilanib hal etib boriladi.

Tarbiyaviy jarayonni modellashtirishda o'qituvchi bilimli, raqobatbardosh yetuk kadrlarni tarbiyalash uchun javobgar shaxs ekanligini unutmasligi kerak. Ushbu vazifalar tarbiya texnologiyalari maqsadlaridan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun tarbiyaning quyidagi umumiy vazifalarini hal etish o'qituvchi-tarbiyachi zimmasiga yuklatilgan;

a) o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va maqsad birligi hissini uyg'otish;

b) o'quvchilar ongini mustaqil davlatchiligimiz siyosatining tub mohiyati mujassamlashgan milliy mafkuramiz va umuminsoniy qadriyatlar, chuqur bilim va tafakkur, keng dunyoqarash bilan boyitib borish;

v) umuminsoniy axloq me'yorlari (odamiylik, kamtarlik, o'zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatli bo'lish, insonparvarlik, axloqsizlikka nisbatan nafrat va hokazolar)ning mohiyatini anglashiga, muomala odobi, yuksak madaniyatni qaror toptirishga erishish;

g) o'quvchilarda huquqiy va axloqiy me'yorlarga hurmat ruhida yondashish hissi va fuqarolik tuyg'usi, ijtimoiy burchga mas'ullikni qaror toptirish;

d) tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasida mas'uliyat hissini rivojlantirish;

e) vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, o'zga millat va xalqlarni hurmat qilish, ularning huquq va burchlarini kamsitmaslik tuyg'usini qaror toptirish;

j) O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish;

z) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, rahm-shafqatli bo'lish, uning sha'ni, or-nomusi, qadr-qimmatini, huquq va burchlarini hurmat qilishga o'rgatish.

Shu bilan birga, tarbiya mazmunining asosiy yo'nalishlari bo'lmish axloqiy, aqliy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy tarbiyaning g'oya va maqsadlari o'qituvchi tomonidan modellashtirilib, bajariladigan vazifalar belgilab olinadi va amalga oshiriladi. Ushbu tarbiyaviy vazifalar mazmunini anglagan holda o'qituvchi quyidagi faoliyatni olib borishi lozim:

1) Axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'qituvchi ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor bo'lishi, ularga milliy arf an'analarimiz, urf-odatlarimizdan kelib chiqib

belgilangan axloqiy me'yorlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini bilishi, ijtimoiy-axloqiy me'yorlar (talab va ta'qiqar) asosida o'quvchilarda axloqiy ong va madaniyatni shakllantirishi.

2) Aqliy tarbiyani yo'lga qo'yish asosida - o'quvchilarni ilm-fan, texnika va texnologiya borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etadi, ularga ijtimoiy va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarni berish bilan tafakkuri shakllantiriladi, dunyoqarashi rivojlantiriladi.

3) Jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida - o'quvchilarni o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanishi hamda uning ishchanlik qobiliyatini oshtrish borasida g'amxo'rlik qilish tuyg'usini yuzaga keltiradi, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, uarni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, o'quvchilarning yoshi, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, mehnat, iroda va xarakteri qaror toptirish) jismoniy harakat sifatlarini rivojlantirish.

4) Estetik tarbiyani olib borish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalaydi, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantiradi, estetik madaniyat rivojlantiriladi.

5) Ekologik tarbiyani olib borish bilan - o'quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat uyg'unligi hamda aloqadorligi haqidagi ma'lumotlar tushuntiriladi, ularda ekologiyaning insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalar qaror toptiriladi, o'qituvchi o'quvchilarda tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'amxo'rlik qilish kabi tuyg'ularni tarbiyalaydi.

6) Iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyatga faol ishtirok etish ko'nikma va malakalarini hosil qildiradi, inson mehnati bilan asrlar davomida bunyod qilingan moddiy va ma'naviy boyliklarni asrash borasida qayg'urish tuyg'ularini qaror toptiradi, iqtisodiy madaniyatni shakllantiradi.

7) Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarga davlatimiz Konstitutsiyasi, davlat haqidagi ta'limot, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosi tushuntiriladi, ular ongiga ijtimoiy-huquqiy me'yordaming shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tushunchalar singdiriladi, huquqiy munosabat va madaniyat mohiyati yo'zasiidan tasavvo'rga ega bo'lishni ta'minlaydi.

8) G'oyaviy-siyosiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga siyosiy bilimlarni berish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat to'zilishi, davlat organlari faoliyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ichki va

tashqi siyosati mazmunini to'g'ri tushunishni ta'minlash asosida siyosiy faoliyat yo'zasidan ko'nikma va malakalarni tarkib toptiradi, siyosiy madaniyat me'yorlari shakllantiriladi.

**Tarbiya** texnologiyasida tarbiya jarayoni, mazmun va mohiyatidan kelib chiqib belgilangan vazifalarni o'qituvchi amalga oshirishi uchun uning o'ziga xos qonuniyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyaning eng muhim qonuniyatlaridan biri **aniq maqsadga yo'naltirilganligidir**. Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik. Zero, tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi. Yagona maqsadga erishish yo'li zamonaviy tarbiya jarayonining maqsadini tavsiflaydi.

**Tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon** bo'lib, unda tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (subyektiv va obyektiv) omillar ko'zga tashlanadi. Subyektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlari mazmunini anglashga yordam bersa, obyektiv omillar shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobiy hal etish uchun sharoit yaratadi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik shaxsiy xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim ahamiyatga ega.

**Tarbiya jarayonining** yana bir qonuniyati uning **uzoq muddat davom etishidir**. Tarbiya natijalari tez sur'atda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniy sifatlarni namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda o'zoq muddatli davr talab etiladi. Shaxsning muayyan vaqtning o'zida, turli-tuman qarashlar raavjud bo'lgan bir sharoitda harakat qilishi tarbiya jarayonini murakkablashtiradi. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy jarayon shaxs ongi va dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Binobarin, yoshlik yillarida insonning asab tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi. Shu bois tarbiyada muvaffaqiyatga erishish uchun o'quvchilik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berish lozimligi talab eliladi.

**Tarbiya jarayonining** yana bir qonuniyati uning **uzluksizligidir**. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiya jarayoni bu - o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvoilqdir.

O'quvchilarni tarbiyalashda ta'lim muassasasi yetakchi o'rin egallasa ham, o'quvchilarga uzluksiz tarbiyaviy ta'sir o'tkaza olmasdi, chunki, o'quvchilar belgilangan ma'lum muddatda ta'lim muassasasida, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri ostida bo'lib, qolgan bo'sh vaqtning

asosiy qismini oilada, ko'chada, jamoat orasida o'tkazadilar. Ko'zgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta'tillar davrida o'quvchilar ta'lim muassasasi o'qituvchilari ta'siridan chetda qoladilar. Demak, ta'lim muassasalarida o'quvchilarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo'lib, sinfdan va maktabdan tashqarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan holi vaqtda ular o'qituvchi yoki tarbiyachining ta'siri hamda nazoratidan o'zoqlashadilar. Ayni vaqtda, respublikamizda o'quvchilarning ta'lim muassasalaridan o'zoqlashtirmaslik maqsadida qo'shimcha ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida o'quvchilar xususiy fanlar hamda xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirishlari, texnik va badiiy yo'nalishlar bo'yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari mumkin. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli yo'nalish va mavzulardagi uchrashuvlar, ko'rgazmalar, ko'rik-tanlovlar, suhbatlar o'quvchilarning tafakkurini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o'rin tutmoqda.

Tarbiva jarayonining yana bir qonuniyati - bu uning **yaxlit holda tizimli tashkil etilishidir**. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g'oyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, shaxs ma'naviy-axloqiy sifatlarni navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o'zlashtira boradi, shu bois pedagogik ta'sir ham yaxlitlik, tizimlilik xarakteriga ega bo'lishi lozim. Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati qator pedagogik talablarga amal qilish, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni qaror toptirishni talab etadi.


Tarbiyaning yana bir qonuniyati shundan iboratki, bu jarayon **ikki tomonlama aloqa xususiyatiga** ega bo'lib, unda o'quvchining o'zi ham faol ishtirok etadi. Ikki tomonlama aloqa ikki yo'nalishda, ya'ni, o'qituvchining o'quvchiga ko'rsatadigan ta'siri (to'g'ri aloqa) hamda o'quvchining o'qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzida tashkil etiladi.

Tarbiyaning pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyasiga muvofiq, endilikda o'quvchi tarbiya jarayonining obyektigina bo'lib qolmasdan, subyekt sifatida ham faoliyat ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo'layotgan tashqi ta'sirlar va axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda mazkur talab unutilsa shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakun topadi. Mana shundan tarbiya jarayonining yana bir xususiyati - tarbiyada qarama-qarshilikning mavjudligi kelib chiqadi. Ushbu qarama-qarshiliklar o'quvchilarga o'z tushunchalariga muvofiq paydo bo'lgan dastlabki sifatlari o'rtasida yoki o'quvchilarga qo'yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi.

Undan tashqari ushbu qarama-qarshiliklar, ko'pincha, o'quvchining ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo'lmasligidan, o'qituvchi va tarbiyachilarning o'quvchilar yosh psixologik, fiziologik

xususiyatlarini (fe'l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy hamda fiziologik jihatdan sog'lomligi) yaxshi bilmasliklari oqibatida sodir bo'ladi.

Demak, tarbiya jarayonida quyidagi qonuniyatlar modellartitirish xususiyatini o'zida namoyon etadi:



3-chizma. Tarbiya qonuniyatlarini modellashtirish

O'qituvchi tarbiya mazmunini shaxsning barkamol inson darajasida shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatini anglagan holda modellashtiradi. Ushbu modellashtirilgan mohiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy muhitda kishilar bilan o'zaro munosabatlar darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi g'oyalari asosida belgilanadi. Modellashtirish asosida o'qituvchi quyidagi zamonaviy tarbiya mazmimning tamoyillarini belgilab oladi:

**1. Maqsadning aniqligi.** O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikka erishgan dastlabki yillardayoq yosh avlodni tarbiyalashda aniq maqsadlar belgilab olindi. 1997-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ko'rsatilgan vazifalarga asosan tarbiyaning asosiy maqsadi - erkin, ijodkor, mustaqil fikrga ega bo'lgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo'lidagi asosiy vazifa - bo'lajak kadrlar salohiyatini har tomonlama yuksaltirish, ularda madaniyat va ma'naviyat unsurlarini shakllantirish, ya'ni, har bir shaxsning kasbiy bilimlarni puxta egallashda aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, siyosiy jihatdan ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdir.

**2. Birgalikdagi faoliyat.** O'qituvchilar o'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirishning eng yaxshi namunalarini izlashi, shu asosda tarbiyaviy faoliyatni hayotiy

me'yor va qadriyatlar bilan mutanosibligini ta'minlashi, o'quvchilarning tarbiyaviy dunyosiga chuqur kirib borib, o'zaro yaxshi munosabatlar asosida ularning axloqiy tafakkurini shakllantirishi lozim. O'qituvchining pedagogik mahorati, tarbiyaviy faoliyatda doimo o'rnak bo'lishi o'quvchilar faolligini ta'minlaydi. Zero, dunyoqarashi hali mukammal shakllanmagan o'quvchilar uchun o'qituvchilarning ma'naviy dunyosi, hayotiy tajribalari ularning shaxsiy namunalari ulkan tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega.


**3. O'z-o'zini anglash.** Barkamol avlodni tarbiyalashdan asosiy maqsad, yoshlarda e'tiqod, demokratik qarashlar va ijtimoiy hayotda o'z mustaqil fikriga va mustahkam pozitsiyasiga ega bo'lish shakllantiriladi, insonning hayotda o'z-o'zini anglashi, tarbiya mazmunining eng muhim unsurlardan biri sanaladi. O'quvchilar o'zlarining shaxsiy hayoti va faoliyatlarini subyekt sifatida e'tirof etib, o'z-o'zlarini qanday anglashi bilan tavsiflanadilar. Inson kamolotida fuqarolik, kasbiy va axloqiy jihatdan o'z-o'zini anglashi muhim ahamiyatga egadir.

**4. Iroda erkinligi.** Tarbiya jarayoni o'qituvchi tomonidan oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o'zida o'qituvchi va o'quvchilar ma'naviyatini boyitadi. Agar o'qituvchi o'quvchilarning qiziqishini, faoliyatini, o'rtoqlik va fuqarolik burchini his etishini, mustaqillikka intilish tuyg'ularini anglab, uni takomillashtirib borsa, o'quvchida yuksak iroda va erkinlik tuyg'ulari shakllanib boradi.

**5. Tarbiyaning shaxsga yo'naltirilganligi.** Mazkur g'oya barcha ta'lim muassasalari amaliyotining markaziy nuqtasida o'qituvchilarning tarbiyaviy ishlar dasturida, turli tarbiyaviy maqsadlarga yo'naltirilgan tadbirlarda, tarbiyaning shakl, metod va vositalarida asosan o'quvchi shaxsi to'rganligini anglatadi. Tarbiyaviy jarayonda uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, o'ziga xos xarakteri, o'z qadr-qimmatini anglash tuyg'ulari modellashtirish asosida rivojlantirilib boriladi.

**6. Jamoaning ta'siri.** O'quvchilarda barkamol insonga xos xususiyatlar, avvalo, sinf jamoasida rivojlantiriladi. Sinf jamoasining tarbiyaviy ta'siri ostida o'quvchining bir-birlariga nisbatan ijobiy mimosabatlari qaror topadi, jamoa yordamida o'quvchi har tomonlama kamolotga erishadi, dunyoqarashi shakllantiriladi, insonparvarlik va o'zaro hamkorlik tuyg'ulari rivojlantirilib boriladi.

Zamonaviy tarbiya mazmunida ilgari surilgan g'oyalarni modellashtirilishi yaxlit tarzda quyidagi ko'rinishga ega:



4-chizma. Tarbiya mazmunini modellashtirish.

Tarbiya mazmunining mukammal belgilangan qonuniyatlari mavjud bo'lib, u asrlar davomida bar bir davrning talablariga mos ravishda takomillashtirilib kelingan. Tarbiya mazmunida tarbiyalanuvchining yoshi va ijtimoiy kelib chiqishiga qarab belgilangan tarbiyaviy maqsad va vazifalarga muvofiq ular tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda axloqiy sifatlari mujassamlashgan.

O'quvchini yuqorida qayd etilgan tarbiyaviy jarayonlarning nima uchun kerakligi, ularning insonga nima bera olishi kabi masalalar qiziqtiradi. Ushbu tarbiyaviy faoliyatlarning har birini oqilona, jamiyat taraqqiyoti va milliyligimizga xos ravishda modellashtirib o'quvchilar ongiga singdirish kerak.

Tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda modellashtirishdan foydalanishning bayon etilgan nazariy asoslaridan tashqari yana bir nechta mustaqil, biroq o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi kuchga ega bo'lgan tarbiyaviy jarayonning bir-biri bilan o'zaro bog'liq jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- tarbiyaviy faoliyatda obyekt va subyektning o'zaro kommunikativ munosabati;
- bir maqsadga qaratilgan va aniq mazmunga ega tarbiyaviy metodlar;
- uzluksiz faoliyatli tarbiyaviy jarayon va uning ijobiy natijalari;
- guruh jamoasi norasmiy yetakchisi (lideri)ning tarbiyaviy jarayonga ta'siri.

1) **Obyekt va subyektning o'zaro kommunikativ munosabati** tarbiyaviy texnologiya modelida asosiy faoliyat ko'rsatuvchi deb e'tirof etiladi. Unda tarbiyalashni amalga oshiradigan o'qituvchi yoki shaxslar guruhi, shuningdek manfaatlari doirasida tarbiyaviy o'zaro ta'sir ko'rsatishni tashkil etuvchi shaxs yoki ijtimoiy muhit guruhi (masalan: sinf guruhi) tushuniladi.

2) **Tarbiyaviy reja asosida tarbiyalashning bir maqsadga yo'naltirilganligi**, tarbiyaviy texnologiya unsurlarini modellashtirishda o'qituvchi tomonidan belgilangan hamda obyektning tarbiyalashdan ma'lum bir maqsadni ko'zlash yoki faraz qilishdir. Ushbu jarayon asosida o'qituvchi ishtirokida olib boriladigan tarbiyaviy faoliyatning bir maqsadga qaratilganligi aniq mazmunga ega tarbiyaviy vositalarda, shakl va metodlarda ifodalanadi.

3) **Uzluksiz faoliyatli tarbiyaviy jarayon** tarbiya texnologiyalarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ta'limning uzluksizligini va nafaqat ta'lim muassasalarida, balki tarbiya oilada, ijtimoiy va geografik muhitda, mahallada olib borilishini bildiradi. Zero, ota-ona yoki avlod-ajdodlarga xos bo'lgan nutq, tafakkur, mehnat, ijod qilish qobiliyati va boshqa iste'dod allomalarining irsiyat orqali bolaga o'tishini ta'minlovchi biologik omillarning (*layoqat va iste'dod mudroq holatda bo'lib, uning uyg'onishi uchun oilada va ta'lim-iarbiya muassasalarida qulay sharoit yaratish talab etiladi*) hamda shaxsga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi oila, maktab, do'stlar va tengqurlar davrasi kabilarni o'z ichiga oluvchi **mikromuhitning** uzluksiz tarbiyaviy jarayonda ta'siri beqiyosligi olimlarimiz tomonidan e'tirof etilgan. Ayniqsa, oila muhiti shaxsning shakllanishida o'ziga xos muhim tarbiyaviy maskan bolib, nihoyatda keng tarmoqli tarbiyaviy ta'sir etish quvvatiga ega. Ota-onaning tarbiyalanganligi va tarbiyaviy tajribalarni mukammal bilishi, bola tarbiyasida doimiy nazorat va javobgarlik hissi o'zbek oilasi uchun eng qadrli burch sifatida e'zozlanadi, bularning barchasi tarbiyalanuvchi subyektga nisbatan komil inson shaxsiga xos sifatlarni shakllantirishga qaratilgan.

4) **Guruh jamoasida norasmiy yetakchining (lider) xatti-harakati va xulq-arvori bilan** tarbiyaviy jarayonga ta'sir etishi guruhda tarbiyalanuvchilarning barcha hayotiy faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Bolalar va o'smirlar jamoasidagi lider (yetaklovchi, boshlovchi) o'qituvchi yoki tarbiyachi tomonidan guruhda rasman tayinlanmaydi. Jamoadagi bolalarga norasmiy yetakchilik qiluvchi o'quvchi o'qituvchilar oldida e'tibordan chetda yuradi, o'zining qattiqqo'ligi, xarakteridagi guruhga yetakchilik qilishga xos tug'ma qobiliyati, mustahkam irodaga egaligi, qo'rqmasligi bilan guruh a'zolarining hurmatini qozonib, jamoadan ajralib chiqadi va o'zi bilan hammaslak, hamfikir bolalarni yetaklaydi. Norasmiy liderning har qanday faoliyati salbiy oqibatlarga olib kelishi yoki ijobiy natijalar berishi ham mumkin. Bunda o'qituvchining mahorati, psixologik tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining norasmiy liderga nisbatan

qattiqqo'lligi, tarbiyaning jazolovchi metodlarini qo'llashi foyda bermaydi, aksincha, zararli oqibatlariga olib kelishi mumkin.

O'qituvchi o'zining ziyrakligi va chuqur psixologik bilimi, yuksak pedagogik mahorati bilan, avvalo, o'quvchilar guruhi jamoasidagi liderni aniqlashi, kerak bo'lsa, unga yon bosib, o'z tomoniga og'dirib olishi lozim. Pedagogik mahoratning ishonitirish va ta'sir etish usullari asosida norasmiy lider ongiga sezdirmasdan kirib borib, o'z ta'sirini o'tkaza olgan o'qituvchi guruh jamoasida bir xil tarbiyaviy muvozanatni saqlay oladi. Shundan keyin tarbiyaviy texnologiyaning ma'qul bo'lgan unsurlarini modellashtirib qo'llashi va cho'chimasdan tarbiyaviy faoliyat olib borib, belgilangan maqsadga erishishi mumkin.

O'quvchilar jamoasida norasmiy yetakchilar bilan birga rasmiy, o'qituvchilar tomonidan tayinlangan yo'l boshchilar ham mavjud. Odatda, rasmiy yo'l boshchilar tarkibini a'lo baholarga o'qiydigan, jamoa ishlarida faol ishtirok etuvchi o'quvchilar tashkil etsa, norasmiy liderlar garchi bu kabi sifatlarni narnoyon etmasalarda, ayrim sifatlariga ko'ra tengdoshlarini o'z ortlaridan ergashtiradilar. Norasmiy liderlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi boshqa o'quvchilarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois sinf rahbari bilan birga o'quv rnuassasasi pedagogik jamoasi norasmiy liderlarni aniqlab, ular faoliyatini bevosita nazorat qilib borishlari zarur.

O'quvchilar uyushmasiga pedagogik rahbarlik, yuqorida qayd etilganidek, aksariyat holatlarda guruh rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli guruh rahbari guruhning umumiy hamda har bir a'zosining individual xususiyatlarini bilishi, xulq atvoridagi har bir o'zgarishni inobatga olgan holda jamoaga yondashishi zarur. Guruh rahbarining norasmiy liderlar va ularning shaxsi haqida to'laqonli ma'lumotlarga ega bo'lishi, ota-onalari bilan muntazam aloqada bo'lishi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga yordam beradi.

O'qituvchi tarbiyaviy faoliyatning barcha unsurlari o'zaro aloqadorligini va o'zaro bog'liqligini nazariy va amaliy jihatdan tushunishi tarbiyaviy jarayonni to'g'ri yo'naltirishga imkoniyat beradi. Bunda pedagogikada tarbiyaviy o'zaro ta'sir ko'rsatisning shakllari, metodlari, usullari va vositalarini ochib beradigan hamda tarbiyaviy texnologiyalarning "pedagogik vositalarini shakllantiruvchi faoliyati va natijalariga, tarkibiy qismlariga alohida e'tibor qaratiladi. O'qituvchi, avvalo, tarbiyadan kelib chiqadigan maqsadga to'g'ri baho bera olishi kerak.

## II BOB. TARBIYA TEXNOLOGIYASINING AMALIY ASOSLARI

### II.1. BO'LAJAK O'QITUVCHINING TARBIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA

#### FAOLIYAT OLIB BORISHI

Barkamol avlod tarbiyasi mamlakatimizda, avvalo, o'qituvchilar zimmasiga yuklatilgan eng olijanob vazifadir. I.A-Karimov Oliy majlisning IX sessiyasida so'zlagan nutqida shunday deydi: *"Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz"*. Komil inson, o'qituvchining mashaqqatli mehnati namunasidir. Sharq allomalari ilmiy meroslarida ham komil inson tarbiyasi doimo munozarali mavzu bo'lib kelgan. Jumladan, mashhur alloma Aziziddin Nasafiy o'zining "Komil inson" nomli kitobida shunday yozadi: *"Bilgilki, komil inson quyidagi to'rt fazilatga mukammal shaklda ega bo'lgan insondir. Ularning birinchisi yaxshi so'z, ikkinchisi ezgu faoliyat, uchinchisi go'zal axloq, to'rtinchisi ilm"*. Ushbu mukammal shakllarga ega bo'lgan inson buyuk davlatimiz poydevorini, farovon hayot asoslarini qura oladi. Komil insonni tarbiyalash va voyaga yetkazish jarayoni-pedagogik faoliyatning uzluksiz jarayoni bo'lib, pedagogik texnologiyaning so'nggi namunalari doirasida amalga oshiriladigan hamda tarbiyalanuvchilarning ijobiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadlariga qaratilgan tashkiliy faoliyatdan iborat. Bu faoliyatda bo'lajak o'qituvchi tarbiyaviy jarayonning quyidagi asosiy xususiyatlarini bilishi kerak:

- tarbiyaning yaxlitligi;
- tarbiyaning tizimlilikligi;
- tarbiyaning davriyligi;
- tarbiyaning texnologiyaviyligi.

**Tarbiyaning yaxlitligi** deganda tarbiyalash va o'qitish jarayonlarining, shuningdek, o'qituvchilarni jamiyat talablari asosida kamolotga yetkazish va shakllantirishga qaratilgan maqsadning ajralmas birligi tushuniladi. Tarbiyalash va o'qitish, garchi ilm-fan ularni farqlasada, bir-biriga bog'liq va ko'p umumiylikka ega. Shu ma'noda o'zoq tarixga ega millatimiz *"ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratmagan - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi"* (I.A.Karimov.). O'qitishning mazmunini asosan dunyo haqidagi ilmiy bilimlar tashkil etadi. Tarbiyaning mazmunida me'yorlar, qoidalar, qadriyatlar, ma'naviy boyliklar ustunlik qiladi. O'qitish asosan aql-idrokka ta'sir ko'rsatadi, tarbiyalash esa, birinchi navbatda, shaxsning doimiy iste'mol sohasiga aylangan. Ikkala jarayon shaxsning ongi va xulq-atvoriga birday ta'sir ko'rsatadi va ijtimoiy rivojlanishiga zamin

yaratadi. Qanchalik yaqin bo'lishiga qaramay, bu o'ziga xos jarayonlar bo'lib, ilm-fan ularni tarbiya nazariyasida va didaktika (ta'lim jarayoni)da alohida ko'rib chiqadi. Bunda o'qituvchi tomonidan zamonaviy shart-sharoitlarga asoslangan holda uslubiy tamoyil va ayniqsa, dolzarb hisoblangan butun pedagogik jarayonning yaxlitligi ta'minlanadi.

**Tarbiyaning tizimlili**gi tarbiyaviy jarayonda umumiylikni tashkil etadi, chunki tarbiyaviy jarayonlar bir nechta tizimlarning turli xususiyatlaridan iborat. Aytish mumkinki, tarbiyaviy jarayonlar — bu tarbiyaviy tizim holatlarining ketma-ket almashinuvidir. Tarbiyaviy jarayonni tizimli ravishda ko'rib chiqish, tizim va jarayonning to'zilmaviy xususiyatlarini shuningdek, ular o'rtasidagi funksional aloqalarining ajratib ko'rsatilishini ifodalaydi. O'qituvchi uchun har bir tarbiyaviy uslubning o'ziga xos xususiyatini, mohiyatini, buning boshqasiga ta'siri natijasida o'zgarishini anglab yetishi muhim ahamiyat kasb etadi. *Masalan, tarbiyalash maqsadi uning mazmunini belgilab beradi, tarbiya ko'rganlik darajasi esa tarbiyalash usullarini tanlashga ta'sir ko'rsatadi va hokazo.* Pedagogik jarayonda tarbiyaning **davriylik** tuzilishi — bu tarbiya texnologiyalarining asosiy xususiyatlariga muvofiq bo'lgan, uning tarkibiy qismlari yig'indisidir. O'qituvchi buning natijasida tarbiyaning davriylik to'zilmasi belgilab olishi mumkin:

1. Maqsadni belgilash — tarbiyalashdan kelib chiqadigan maqsadlarni ma'lum bir muddatli jarayonlarga bo'lib chiqishi.

2. Mazmunni tanlash — tarbiyalash mazmunini jamiyat talablari darajasida mustaqil ishlab chiqishi.

3. Demokratik faoliyatli — tarbiyaviy jarayon ishtirokchilarini tarbiyalashda va o'zaro munosabatda erkin fikrlilik va umuminsoniylik me'yorlariga rioya qilish qonuniyatlari.

4. Baholash — tarbiyalash jarayonida erishilgan natijalar samaradorligining o'qituvchi tomonidan baholanib borishi va doimiy tahlil qilinishi.

Pedagogik faoliyat ham o'qituvchi tomonidan tarbiyaviy jarayonning to'zilmasi muvofiq quriladi: faoliyatning maqsadlari, mazmuni, usullari va turlari ishlab chiqiladi va natijalari tahlil qilinadi. Tarbiyalash maqsadlarini aniqlash pedagogik aniqlashni (diagnostika) — tarbiyaviy jarayon holati, birinchi navbatda, o'quvchilarning tarbiya ko'rganliklarini, shuningdek, jarayonning boshqa shartlarini o'rganishni talab etadi.

Tarbiyaviy jarayon bosqichlarining o'zaro munosabatida tarbiyaviy jarayonlarning ketma-ketligi uning davriyligini va qaytarilib turishini belgilaydi. Shaxsivojlanishida tarbiyaviy maqsadlar o'qituvchi tomonidan uning yoshiga qarab belgilanadi va rejalashtiriladi. Tarbiyaviy jarayonning davriyligi shaxsning yosh xususiyatlarini hisobga oladi. Bunda asosiy e'tibor quyidagi faoliyatga qaratilishi kerak:

- shaxsning muayyan bir yoshiga xos bo'lgan anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarning chuqur o'rganilishi;

- davriylik tizimi asosida tarbiyaviy ish faoliyatining tashkil etilishi;
- muayyan bir yoshga xos bo'lgan tarbiyalanganlikning doimo aniqlanib (diagnostika), loyihalashtirilib borilishi;
- ijobiy natijalar beradigan tarbiyaviy o'zaro ta'sirning o'qituvchi tomonidan turli shakl va metodlari darajalarining belgilanib (diagnostika) amalga oshirilishi.

**Tarbiyaning texnologiyaviyligi** ta'lim muassasalarida tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish va unga erishishga sharoit yaratadi, nazariy asoslangan uzluksiz davom etadigan tarbiyalash jarayonining shakllari, metodlari, usullari va vositalarini o'qituvchi to'g'ri tanlab natijalarga erishishini ta'minlaydi. U ilmiy modellashtirish (loyihalashtirish) asosida amalga oshiriladi, modellashtirishda tarbiyaviy maqsadlar bir xil ma'noda beriladi hamda o'qituvchi tomonidan insonning shaxsiy xususiyatlari va sifatlarini rivojlantirishning muayyan bosqichlarini obyektiv ravishda o'lchash va baholash imkoniyatlarini yaratadi.

Tarbiyaning texnologiyaviyligi har qanday pedagogik tizimda — ilmiy muammolar bilan o'zaro munosabatda bo'lgan tushunchadir. Biroq, agar ilmiy muammo tarbiyalanuvchiga bilim berish, ilmiy tafakkurini oshirish hamda ko'nikma va malakalarini shakllantirish kabi maqsadlarni ifodalaydigan bo'lsa, u holda tarbiya texnologiyasi o'qituvchiga o'quvchilarni tarbiyalash yo'l-yo'riqlari va ularga erishish vositalarini to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi.

Tarbiyaning texnologiyaviyligi tarbiyalashga yo'naltirilgan ilmiy muammo sifatida o'quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun lozim bo'lgan va komil insonga xos barcha insoniy fazilatlarni muayyan shart-sharoitlarda uzluksiz tarbiyalash asosida takomillashtirishni nazarda tutadi, bu esa ta'lim mazmunining o'ziga xos xususiyatlarini ham belgilaydi.

Shu munosabat bilan tarbiyaviy jarayonni harakatga keltiruvchi kuch, turtki asosan nimada ekanligi to'g'risida savol paydo bo'ladi. Pedagogikada inson tarbiyasiga qo'yiladigan, uning hayotida yuzaga keladigan talablar va uning huquqiy imkoniyatlari, ijtimoiylashuvi, shaxsiy rivojlanish darajasi o'rtasidagi ziddiyatlar bunda asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Ushbu talablar uning yosh xususiyatlariga muvofiq kelgandagina, insonni tarbiyalash va uni shaxs sifatida rivojlantirish jarayonining boshlanishiga turtki bo'ladi. L.S.Vigotskiy bolaning biror harakat-u kattalarning yordamisiz bajara olishi mumkin bo'lgan holatini dolzarb rivojlanish hududi deb atagan. Bola o'qish jarayonida biror yangi narsani o'qituvchining yordami bilan salohiyatli tarzda o'zlashtirishga qodir bo'lgan daraja yaqin rivojlanish hududi bilan belgilangan. Hududlar orasidagi masofa ziddiyatli tarbiyaviy holatni vujudga keltiradi — tarbiyaviy jarayonning bunday holati shaxsni shakllantirishda vujudga keladigan va erishiladigan yutuqlar o'rtasidagi tafovut mavjud bo'lganda yuzaga keladi. Bunday qarama-qarshiliklarning paydo

bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun o'qituvchi-tarbiyachi belgilangan tarbiyaviy maqsadlarni o'z maromida uzluksiz, mukammal amalga oshirishi lozim. Shundagina tarbiyaviy nuqsonlarni bosqichma-bosqich bartaraf etishga shart-sharoit yaratiladi.

***O'qituvchinmg tarbiyaviy maqsadlarni to'g'ri tanlashi volyuntaristik (ko'ngilchanlik) xarakterga ega bo'lmasligi lozim.*** U pedagogikaning uslubiyoti, jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar, ushbu jarayon yo'zasidan qabul qilingan maxsus qonun va qoidalar asosida belgilanadigan maqsadlar va milliy qadriyatlar to'g'risidagi falsafiy tasavvurlar, shuningdek, jamiyat va davlat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Tarbiya texnologiyasida o'qituvchi tomonidan belgilanadigan maqsadlar turli darajada bo'lishi va bosqichma-bosqich bir-biriga bo'ysunishi, ketma-ket bajarilishi mumkin. Biroq tarbiyaviy maqsadning asosiy mohiyati — davlat maqsadlari, ijtimoiy buyurtmalardan kelib chiqishi lozim. Aytish mumkinki, asosiy daraja - mamlakatda inson va uning fuqarolari qadr-qimmatini to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarni aks ettiradigan maqsadlardir. Ular mutaxassislar tomonidan ishlab chiqiladi, hukumat tomonidan qabul qilinadi, qonunlar va boshqa hujjatlarda qayd etiladi. Keyingi daraja - ta'lim dasturlari va standartlarida aks etadigan maqsadlar, ya'ni davlat ta'lim standartlari, maxsus ta'lim tizimlarining va ta'lim bosqichlarining maqsadlari. Eng quyi daraja — muayyan yoshdagi kishilarni tarbiyalashda maqsadning birligi.

Shaxsni shakllantirish, boshqarish tarbiyaviy faoliyat natijasida yuksak ma'naviy va axloqiy xislatlarga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tasodifiy harakatlar orqali emas, balki, oldindan belgilangan va puxta o'ylab to'zilgan tarbiyaviy maqsadlar asosida olib boriladi. Tarbiyaviy texnologiyada uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, o'qituvchining tarbiyalash maqsadlarini to'g'ri belgilashi va yo'lga qo'ya olishiga nisbatan g'oyaviy yondashuv ijtimoiy buyurtma asosida belgilanib, amalga oshirilishida mavjud shart-sharoitlarni yaratish talab etiladi.

Barcha ta'lim muassasalarida pedagoglar **3 asosiy jihat**larga ahamiyat berishlari lozim: nazariy, ruhiy, amaliy.

**Nazariy jihati** - bu tarbiyachining pedagogik va psixologik bilimlarini tizimiy ravishda o'z mehnat faoliyatiga moslash;

**Psixologik jihati** – bu tarbiyalanuvchilar bilan kun davomida o'zaro munosabat o'rnatish, muloqotda bo'lish jarayoni uchun sharoit yaratish.

**Amaliy jihati** – bu tarbiyalanuvchi bilan o'zaro munosabat o'rnatish davomida bilim va tajribasiga tayanib, barcha malaka va ko'nikmalarni qo'llash.

Bu uchala jihatlarining o'zaro mantiqan bog'liqligi ta'lim jarayonini nazariy bilimlardan foydalangan holda amaliyotda qo'llash uchun zamin yaratadi.

Har bir shaxsni hamkor sifatida qabul qilish va inkor etmaslik, sabrlik bilan dunyoning xilma-xilligini tushuntirib borish, u bilan bo'ladigan munosabatlarning doimiy mexanizm tizimini mazmunli to'zish barcha ta'lim muassasalari mutaxassisining burch va vazifasidir.

Shaxsga qaratilgan ta'lim modelini amalga oshirishda tarbiyachi doimo ahamiyat berishi lozim bo'lgan faktorlar:

***motivation***, ya'ni manfaatdorlik faktori – o'z kasb faoliyatiga mas'uliyatli bo'lish, ijodiy yondoshish, o'z sohasini mukammal bilish;

***shaxsga moslashish faktori*** – tarbiyachi faolligi, tarbiyalanuvchi va uning ota-onasi hamda kasbdoshlari bilan bo'lgan munosabatlarda ichki va tashqi kelishmovchiliklarni ko'rsatmaslik;

***shaxsga yo'naltirilganlik*** – tarbiyachining tarbiyalanuvchiga nisbatan ideal sub'ekt sifatida emas, balki o'z ehtiyoj va imkoniyatlariga ega shaxs sifatida munosabatda bo'lishi;

***maxsus mutaxassislik*** – tarbiyalanuvchining individual ko'rsatkichlarini bilish, o'z bilim va malakasini pedagogik-psixologik jarayonda namoyon etish;

***texnologik-uslubiy*** – pedagogik-psixologik jarayonda maqsadni belgilay olish, natijalarni bashorat qila olish, innovation usullarni qismlarga bo'lib maqsadli qo'llash;

***kommunikabellik (kirishimlilik)*** – ijobiy hissiyotlarga tayangan holda, persektiv insonni insonga nisbatan ijobiy qabul qilish, barcha bilan chiqishib ketish, muloqot o'rnatishning zamonaviy texnologiyalaridan keng foydalanish;

***kasbiy mahorat*** – o'z kasbi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini mahoratlik bilan amaliyotda qo'llash, doimiy izlanish, mustaqil va ijodiy fikrlash, yangi malaka va ko'nikmalarga tayangan holda shaxsdagi fiziologik o'zgarishni kuzatish va tahlil qila bilish.

**Bo'lajak o'qituvshi** tarbiyachi sifatidagi faoliyatida quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

1. Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni bo'lib, har qanday to'zum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo'lib kelgan.

2. Yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy to'zum mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-niyatlari asosida belgilanadi.

3. Tarbiya jarayoninig xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish oldinga qo'yilgan maqsadga erishish, shuningdek, belgilangan vazifalarni ijobiy hal etish imkoniyatini beradi.

4. Bo'lajak mutaxassis pedagogik texnologiyaga old bilimlar bilan bir qatorda tarbiya texnologiyasiga oid bilimlarga ham ega bo'lishi shart: o'qituvchi xatti-harakatlarning algoritmi, tarbiyalash shakllarini bilishi, har qanday tarbiyalash metodini amalga oshirish bo'yicha barcha operatsiyalarni mukammal bajara olishi lozim.

## **II.2. TARBIYA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHDA PEDAGOGIK VOSITA VA METODLARDAN FOYDALANISH**

Tarbiyalanuvchilarning harakati faol bo'lishi, ular bilan olib boriladigan tarbiyaviy faoliyat funksiyalari esa doimo almashinib, yangilanib turilishi lozim. Shuning uchun ham tarbiyalanuvchilarning faoliyati ustidan rahbarlik qilishda, bo'lajak o'qituvchi pedagogik mahoratning boy tajribalariga ega bo'lishi zarur. So'nggi yillarda pedagogika fanida tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri tashkil etishda yetakchi yondashuv sifatida turli pedagogik vositalar va metodlar qo'llanilmoqda. Mazkur faoliyatni mukammal yo'naltirish uchun quyidagi pedagogik vositalar va metodlardan foydalanish mumkin:

**Pedagogik talab** jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor, ijtimoiy qoidalar, an'ana va urf-odatlarining muayyan me'yorlarini bajarish uchun o'quvchiga qo'yiladigan talablar majmui tushuniladi. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarining yig'indisi, real masala yoki biror-bir xatti-harakatlarning bajarilishi to'g'risidagi aniq ko'rsatma sifatida ifodalanishi mumkin. Ushbu talablar bajarilish shartiga ko'ra bevosita yoki bilvosita bo'ladi. Bevosita ko'rsatma yoki yo'riqnomalar axloq me'yorlariga so'zsiz bo'ysunish ko'rinishiga ega bo'lishi lozim. Bilvosita talablar esa, iltimos, maslahat, imo-ishora ko'rinishida taqdim etilib, bajarilishi o'quvchilarning o'zlariga havola etiladi. Barkamol, har jihatdan kamolotga erishgan jamoada, ko'pincha, bilvosita talablardan foydalaniladi.

**Jamoada o'zaro munosabatni tarbiyalash metodi** jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyati va xulq-atvorlariga qo'yiladigan talablarning aks etishidir. Jamoa bo'lib va ayrim kishilar tomonidan jamoaning fikr-mulohazalarini ifoda etish, uni amalga oshirish vositalariga o'qituvchi rahbarlik qiladi. Tarbiyalanuvchilarning faoliyatini, xulq-atvoridagi ijobiy hislatlarni baholash asosida ularni rag'batlantiradi, jamoada sog'lom fikrni, o'zaro yaxshi muhitni tarkib toptiradi, do'stona munosabatlarni shakllantiradi.

**O'rgatish** - bu tarbiyalanuvchilar uchun belgilangan axloqiy me'yorlarni ularning xulq-atvoriga singdirish, ko'nikmalar hosil qilishni kundalik faoliyatga aylantirish va doimiy bajarishini tashkil etishdir. O'qituvchi ushbu barqaror odatlarning shakllanishida o'quvchilarga yordam beradi. Belgilangan axloqiy va ma'naviy me'yorlarni kuzatish, shuningdek, mavjud qoidalarning (shaxsiy gigiyena, muomala va boshqalar) bajarilishi shaxs rivojlanishining ilk bosqichlarida yaxshi samara beradi. Tarbiyaviy vositalar tarbiyalanuvchilarga nimani, qanday va nima uchun bajarish kerakligini tushuntirish o'qituvchidan talab etiladi. Bir vaqtning o'zida o'qitish, xatti-harakatlar bajarilishining tekshirilishini ham ko'zda tutadi.


**Mashq qilish** fe'l-atvoriga xos odatlarni, aniq sohada faoliyatning maqbo'l algoritmini shakllantirish maqsadida harakat usullarining ma'lum bir tartibda qaytarilishidan iborat. Mashq qilish metodining vositalariga oilada, ta'lim muassasasida va boshqa jamoat joylarida belgilangan tartibga rioya qilish, to'g'ri tashkil etilgan o'quv faoliyati, bir maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy topshiriqnomalar kiradi.

Bu keng ma'noda o'qituvchi-tarbiyachi rahbarligida ijtimoiy me'yorlarga muvofiq xatti-harakatlar uchun shart-sharoitlar yaratuvchi, o'quvchilar hayoti va faoliyatining to'g'ri tashkil etilishidir. Mashq qilish o'rgatishga tayanadi, shuning uchun o'qituvchi asosiy vazifani bajaradi. Rejalashtirish, ijro etish, baholashda jamoada faol bo'lish o'quvchining iqtidorini rivojlantiradi va axloqiy sifatlarini shakllantiradi. Biroq o'rgatish va mashq qilishda o'quvchilar faoliyatining ijobiy tomonlariga tayanish lozim va o'z navbatida ularni shakllantirgandagina samara berishini hisobga olish zarur.

**Tarbiyalanadigan holatlar** - bu o'qituvchi tomonidan ziddiyatli holatlarda mustaqil tarzda amalga oshiriladigan o'quvchilarda ijobiy fe'l-atvor ko'nikmalarini shakllantiruvchi murakkab vositalardan biridir. Buning uchun tasodifiy ziddiyatli holatlarni modellashirish, guruhda nizolarni bartaraf etishda foydalanish, muammoni to'g'ri hal qilish yo'llarini tanlash kabi vositalardan foydalaniladi.

**Rag'batlantirish** - tarbiyalanuvchilarning qizg'in faoliyatga moyillik ko'rsatishga jalb etish maqsadida ma'naviy va moddiy rag'batlantirish usullari va vositalarining yig'indisidir. Mazkur metod tarbiyalanuvchi yoki guruhning ijobiy bahosi, xususiyatlarini ma'qullash va e'tirof etish, xatti-harakatlari va xulq-atvorining ifodasi sifatida ham qaralishi mumkin. U o'quvchilarning o'z faoliyatidan qoniqishini, o'z kuchiga ishonch hissini, o'z-o'ziga ijobiy baho berishni yuzaga keltiradi, o'quvchilarni axloqiy me'yorlar asosida xulq-atvorini yaxshilashga tomon rag'batlantiradi. Rag'batlantirish vositalariga o'qituvchi va ota-onalarning, talim muassasasi xodimlarining maqtovi, minnatdorchiligi, turli mukofotlar, "Faxriy yorliq"lar bilan taqdirlash yoki boshqa moddiy mukofotlar kiradi. Bunda tarbiyachining so'z bilan maqtovi, minnatdorchilik bildirishi, imo-ishoralari, mimikasi va baholashi, rag'batlantirish vositalari

ko'rinishida namoyon bo'ladi. Rag'batlantirish nafaqat natijani, balki faoliyatning sababi va usulini ham ma'qullashni, tarbiyalanuvchilar ijobiy faoliyatini ma'qullashning dalilini emas, balki uning moddiy hissasini qadrlashga o'rgatishni tavsiya etadi. Rag'batlantirishni ayniqsa, ko'pincha kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga va o'zlarining imkoniyatlariga ishonmaydigan o'smirlarga berish talab etiladi. Katta yoshdagi o'quvchilar uchun ham ulardan foydalanish tarbiyaviy samara beradi.



*5-chizma. Rag'batlantirish turlari.*

Har qanday rag'batlantirish mavjud pedagogik talablarga muvofiq bo'lishi, ketma-ket bolmasligi zarur, shuningdek, o'quvchini yoki uning xatti-harakatlarini haddan oshirib maqtash, boshqa o'quvchilarga taqqoslash, ularni kamsitmaslik, talabchanlikni bo'shashtirmaslik kabi shartlarga muvofiq qo'llaniladi.

**Tanqid** asosida o'qituvchi tomonidan tarbiyalanuvchilar shaxsiy sifatlarida namoyon bo'ladigan salbiy odatlariga baho beriladi yoki jamoa faoliyatida ro'y beradigan tasodifiy salbiy hodisalar o'quvchilar bilan tahlil qilinib ko'rib chiqiladi. Bunda, o'qituvchi ma'lum bir maqsadga bog'liq holda tanqidning turli usullarini vaziyatga qarab qo'llaydi. Chunonchi, sinf jamoasida bir shaxsga taalluqli bo'lgan yoki sinf jamoasiga nisbatan tanqid, kamchiliklarni bartaraf etishga undovchi rag'batlantiruvchi tanqid, kutilmagan hodisalarni bayon etuvchi afsusli tanqid, jamoa bilan birgalikda ro'y bergan kamchilik uchun qayg'urish tanqidi, ta'nali tanqid kabilar.

**Majburlash** — bu o'quvchining xulq-atvoriga qo'yiladigan salbiy baholashning ifodasi, xulq-atvor me'yorlariga zid bo'lgan xatti-harakatlari va bema'ni qiliqlarining muhokamasidir. Pedagogika fanida ushbu vosita tarbiyalashning eng so'nggi metodi sifatida ifodalanadi. Ushbu metod turlari, qo'llanilayotgan boshqa tarbiyaviy metodlar istalgan tarbiyaviy maqsadga erishishda imkoniyat bermagandagina qo'llanilishi mumkin.

XX asrning o'rtalarida pedagogikada majburlashdan shaxsni kamsituvchi va salbiy oqibatlarga olib keluvchi tarbiyalash metodi sifatida foydalanish rad etilgan. Biroq, keyinchalik majburlashdan pedagogik jihatdan to'g'ri foydalanish qonuniy deb e'tirof etildi: u uyat, or-nomus tuyg'ulari o'quvchida bo'lmaganda, uning xatti-harakari salbiy oqibatlarga olib keladigan holatlarda, tarbiyalanuvchining xulq-atvorini tuzatadi, unga xatosini tushunib yetishga imkoniyat beradi.

Tarbiyaviy faoliyatda majburlash metodi shaxsning qadr-qimmatini kamsitmaydigan puxta o'ylangan xatti-harakatlar asosida olib boriladi va uni amalga oshirishda bunday vositalarning tanlanishi chuqur tahlil talab qilinishini hisobga olish zarur. Ular qatoriga o'qituvchining tanbehlari yoki qat'iy talablari, yanada jiddiy mas'uliyatga ehtimolli jalb etish to'g'risidagi ogohlantirish, jamoada muhokama qilish yoki pedagogik kengashga chaqirish, boshqa sinfga yoki maktabga o'tkazish, umumta'lim muassasasidan **haydashni** kiritish mumkin.

Ta'lim muassasalarida qo'llash mumkin bo'lgan jazo choralariga quyidagilar kiradi:

**Tanbeh berish** – eng muhim jazo chorasi. O'qituvchi o'quvchiga yuzma-yuz turib tanbeh beradi.

**Ogohlantirish** – sodir etilishi mumkin bo'lgan muayyan xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

**Hayfsan berish** – o'quvchining ma'lum xatti-harakatlarini qat'iy choralar asosida baholash. Agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, o'quvchi belgilangan intizomni buzaversa, uning aybi qay darajada bo'lishi va intizomni qanday sharoitda buzganligini inobatga olib unga hayfsan e'lon qilish mumkin.

**Uyaltirish** – o'quvchining ma'lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan sub'yektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va b.) oldida baho berish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus va sharm-hayodir. Odamda insonda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, avvalo, o'zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Yoshlarni tarbiyalashda shu his-tuyg'ularni ehtiyotkorlik bilan o'stirish lozim, lekin hfdeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

Ilmiy pedagogik adabiyotlarda tarbiyalashning ko'rib chiqilgan pedagogik vositalaridan tashqari shaxs bilan tarbiyaviy o'zaro ta'sir ko'rsatishning ayrim umumiy usullari ham o'z aksini topadi. Ular qatoriga *pedagogik faoliyatning yangi turlarini joriy etish, muomala ma'nosini o'zgartirish* kabilarni kiritish mumkin. Biroq ularning mazmuni tarbiyalanuvchilarning ongiga ta'sir ko'rsatishdan iborat hamda ma'no jihatidan yuqorida ko'rib chiqilgan tarbiyalash metodlarini o'z ichiga oladi.

Tajribali o'qituvchi bir vaqtning o'zida psixologik tarbiyaviy ta'sir metodlaridan ham foydalanish yetarli darajada samara berishini biladi. Ta'kidlab o'tilganidek, o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan pedagogik vositalar o'quvchilarning ongiga yo'naltirilgan. Pedagogik tajribalarning ko'rsatishicha, og'zaki bo'lmagan ta'sir ko'rsatish metodlari (mimika, pantomimika, imo-ishora, holat, xatti-harakatlar, ko'zlarning ifodasi, ovoz intonatsiyasi), his-tuyg'uga yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatish metodlari (birgalikda qayg'urish, g'azablanish, xursand bo'lish) va oqilona ta'sir ko'rsatish metodlari (asosiy vosita — ishontirish) juda samarali hisoblanadi. Shu bilan birga psixologik metodlar ham, pedagogik metodlar bilan bir vaqtda qo'llanilishi o'qituvchining o'quvchi shaxsiga tarbiyaviy ta'sir etishni kuchaytiradi.

Tarbiya texnologiyalarida foydalaniladigan, ko'rib chiqilgan metodlar uning masalalarini yanada to'liqroq hal etish uchun shart-sharoitlarni yaratgan holda tarbiyalashning barcha shakllarida amalga oshiriladi. Biroq ularni tanlash, o'zlashtirish va amalga oshirishda ko'pgina omillarga, jumladan, milliy an'analar, urf-odatlar, pedagogikaga xos bo'lgan holatlarga e'tibor berish zarur.

Barcha pedagogik holatlarda mutlaqo to'g'ri bo'lgan tarbiyaviy metodlar mavjud bo'lmaydi. O'qituvchi tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun, odatda, muayyan vaqtga mo'ljallangan, o'zining pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatish strategiyasini yaratgan holda tarbiyaviy metodlar majmuasidan foydalanadi. Mohir o'qituvchi o'zining rang-barang tarbiyaviy metodlariga ega bo'ladi va muayyan bir holat uchun ularning muqobil variantlarini topib qo'llaydi. Tarbiyaviy metodlarni qo'llashning o'z texnikasi mavjud bo'lib, u o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. A.S.Makarenko aytganidek, *"O'quvchilar o'qituvchining tarbiyachi sifatidagi ta'sirini, uning tashqi ko'rinishidan, boy ma'naviyatidan, notiqlik san'atidan, so'z intonatsiyasini mukammal o'z o'rnida qo'llay olishidan, yuz ifodasidan o'zlariga qabul qiladilar"*.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ta'riflangan tarbiyaning umumiy metodlari o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish sohalarini qamrab olmaydi.

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib borar ekan, unga muvofiq ravishda tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi.

Tarbiya jarayonining umumiy holatidan kelib chiqqan holda tarbiya metodlarini quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin:



*6-chizma. Tarbiya metodlarining turlari.*

Bu guruhlar o'z navbatida bir qator tarbiya elementlarini tashkil etadi. Chunonchi, shaxs ongini shakllantirish metodlariga: hikoya, tushuntirish, izohlash, ma'ro'za, etik suhbat, ishontirish, nasihat, yo'riqnoma, munozara, namuna; faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlariga mashqlantirish, odatlantirish, pedagogik talablar, jamoat fikri, topshiriq, tarbiyalovchi vaziyat; xulq va faoliyatni rag'batlantirish metodlariga: musobaqa, rag'batlantirish va jazolash kiradi.

**Tarbiyaviy tadbir ishlanmasidan namuna**  
**«ATROF-MUHIT VA INSON SALOMATLIGI»**  
**mavzusidagi amaliy tashviqot**  
**TEXNOLOGIK XARITA**

<b>Mavzu:</b>	<b>«ATROF-MUHIT VA INSON SALOMATLIGI»</b>
<b>Maqsad,</b>	Tabiiy muhitning inson hayotidagi o'rni, atrof-muhit ifloslanishining inson salomatligiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri, ushbu holatning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida yoshlarga ma'lumotlar berish hamda ularda atrof-muhit tozaligi va o'z salomatligini saqlash ko'nikmalarini hosil qilish.

<b>vazifalar</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tabiiy muhitning inson hayotidagi o'zni va roli to'g'risida yoshlarga ma'lumotlar berish.</li> <li>2. Atrof-muhitning ifloslanishini ta'minlovchi sub'yektiv omillar (insonlar tomonidan sodir etilayotgan xatti-harakatlar) mohiyatini yoshlarga tushuntirish.</li> <li>3. Yoshlarda atrof-muhit ifloslanishining inson salomatligiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini ko'rgazmali (amaliy ravishda) namoyish etish orqali muayyan tushunchalarni hosil qilish.</li> <li>4. Yoshlarni ekomuhit ifloslanishining oldini olish, shuningdek, inson salomatligini saqlashga quyiladigan ekologik va gigiyenik talablar mohiyatidan xabardor etish.</li> <li>5. Yoshlarda ekotizim barqarorligi va o'z salomatliklarini saqlash ko'nikmalarini hosil qilish.</li> </ol>
<b>O'quv jarayonining mazmuni</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. «Tabiiy muhitning inson hayotidagi o'zni va roli» - tadbir qatnashchilari ishtirokidagi dialog.</li> <li>2. «Inson faoliyati va ekologik muammolar» - qisqacha ma'lumotnoma</li> <li>3. «Atrof-muhit ifloslanishining inson salomatligiga ta'siri» - mutaxassis (ekolog, tibbiyot xodimi, pedagog)larning maslahatlari (tavsiyalari).</li> <li>4. «Ekologik muammolarning oldini olish uchun nimalarga amal qilish lozim? – ekoviktorina.</li> <li>5. «Gigiyenik qoidalar mohiyatidan qay darajada xabardorsiz? – savol-javoblar.</li> </ol>
<b>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</b>	<p><b>Metod:</b> «Aqliy hujum», bahs-munozara, ekoviktorina, dialog.</p> <p><b>Shakl:</b> Davra stoli.</p> <p><b>Vosita:</b> Toza va ifloslangan suv, tuproq namunalari, suv, havo va tuproq ifloslanishining inson salomatligiga yetkazuvchi salbiy ta'sirini aks ettiruvchi plakatlar, atrof-muhit va inson salomatligining o'zaro bog'liqligini ifoda etuvchi hikmatli so'zlar, maqollar yozilgan lavhalar, «Tabiat va inson» nomli devoriy gazeta, mavzu yuzasidan yaratilgan ilmiy, ilmiy-ommabop va pedagogik asarlar, ommaviy axborot vositalari materiallaridan iborat jamlanma (to'plam).</p> <p><b>Usul:</b> Savol-javob, maslahat, tavsiyalar berish.</p> <p><b>Nazorat:</b> O'z-o'zini nazorat</p> <p><b>Baholash:</b> Rag'batlantirish (ma'naviy, ogzaki), o'z-o'zini baholash.</p>
<b>Kutiladigan</b>	Tadbir jarayonida amalga oshirilgan ishlar mohiyatida mumkin qadar

<b>natijalar</b>	ko'proq yoshlar ishtirokidagi jonli muloqot, amaliy xatti-harakatlarning bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Zero, tadbirlarning standart ko'rinishda, faqatgina pand-nasihatlar yoki ilmiy g'oyalarga asoslanib qolmasligi, aksincha, oddiy tushunchalar, ishtirokchilarni faollikka da'vat etuvchi iboralar, amaliy xatti-harakatlar bilan boyitilishi tadbir ishtirokchilarining salbiy munosabatda bo'lishlarining oldini olishda eng muhim omil ekanligi nazardan chetda qoldirilmaydi. Ishitirokchilar tabiiy muhitning inson hayotidagi o'rni, atrof-muhit ifloslanishining inson salomatligiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri, ushbu holatning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'ladilar hamda ularda atrof-muhit tozaligi va o'z salomatligini saqlash ko'nikmalari hosil bo'ladi.
------------------	---

«Atrof-muhit va inson salomatligi» mavzuidagi amaliy tashviqot xarakteridagi tadbirning **dastlabki bosqichida** yoshlarga «Tabiiy muhit – mening hayotimda» mavzusida shaxsiy fikr-muloxaza hamda qarashlarini bayon etish taklif etiladi. Bundan ko'zda tutilgan maqsad qisqa muddat bo'lsada yoshlarni tabiiy muhitning ular hayotidagi muhim ahamiyati to'g'risida fikrlash va muloxaza yuritishga undashdir.

Tadbir jarayonida yoshlarga ular istiqomat qilayotgan hududlardagi ekologik va sanitariya xolatini tahlil etish asosida atrof-muhit musaffoligining inson hayotidagi o'rni borasida tushunchalar berish maqsadga muvofiqdir. Xususan, maishiy chiqindilarni to'plash, ularni birlamchi saqlash, tashish va ko'mib tashlash jarayonidagi mas'uliyatsizlik, qoidabuzarlik holatlarining sodir etilishi aholi salomatligi va atrof-muhit barqarorligiga jiddiy xavf tug'dirishiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, yoshlarning diqqatini xonadonlarda maishiy oqavalarni zararlantirish ishlarining olib borilishiga nisbatan beparvo bo'layotganligimiz, shuningdek, shahar sharoitida ularni qayta tozalashda mavjud talablarga yetarli darajada amal qilinmayotganligi bois oziq-ovqat maxsulotlarining tarkibida inson organizmi uchun zararli bo'lgan kimyoviy moddalar miqdorining ortib borayotganligi, buning natijasida ichburug', gepatit va boshqa oshqozon-ichak kasalliklari keng tarqalmoqdaki, bu albatta mazkur muammoga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishni taqozo etishiga alohida urg'u berish ijobiy natijalar beradi.

Atrof-muhit ifloslanishi, shuningdek, inson salomatligini saqlashga quyidagi oddiy ekogigiyenik talablarga og'ishmay amal qilish zarur ekanligi yoshlarga uqtirilib borilishi lozim:

1. Doimo ozoda yurishga odatlaning.
2. Ertalab hamda kechqurun uyquga yotishdan oldin yaxshilab yuvining, ayniqsa, og'iz bo'shlig'ini chayish va tishlarni yuvishni yoddan chiqarmang.
3. Haftada ikki marta (kamida bir marta) ichki kiyimlarni almashtiring.

4. Choyshab, yostiqlik jildlarining haftada bir marta yaxshilab yuvilishiga e'tibor bering.
5. Qish faslida haftada bir marta, yozda esa haftada ikki marta hammom (vanna, dush) qabul qiling.
6. Qo'l va oyoq tirnoqlarini tez-tez olib turing.
7. Xonalar (ayniqsa, yotokxona)ni ertalab yaxshilab shamollatishni yoddan chiqarmang.
8. Tanangizni suv va havo yordamida chiniqtirib borishga harakat qiling.
9. Oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishdan avval qo'lingizni sovun yordamida yuving, mevalarni avval iliq, so'ngra sovuq suvda chayigandan so'ng iste'mol qiling.
10. Uzoq muddat saqlangan (ayniqsa, tez buziladigan, garchi ular sovitgichda saqlangan bo'lsada) ovqatlarni iste'mol qilishdan saqlaning.
11. Go'sht mahsulotlarini ishlatishda avval ularning yaxshilab chayilishi, so'ngra toza qovurilishi (bug'lanishi, dimlanishi)ga e'tibor bering.
12. Yoz mavsumida faqat muzlatkichlardagina saqlanayotgan go'sht mahsulotlarini xarid qiling.
13. SES (sanitariya-epidemiya stantsiyasi) doirasida faoliyat yurituvchi laboratoriyalarda nazoratdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumot mavjudligidagina tez buziluvchi oziq-ovqat (shu jumladan, go'sht, baliq va sut mahsulotlari) mahsulotlarini xarid qiling.
14. Ichimlik suvini qaynatilgandan so'ng iste'mol qiling.
15. Xonadonlarda turli yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi hashorotlar (pashsha, chivin, suvarak, bit, bo'rga, kalamush, sichqon va xokazolar)ning bo'lmasligi uchun kurashing. Buning uchun xonadonlar yoki turar-joylarda vaqti-vaqti bilan dizinfeksiya tadbirlarining o'tkazib turilishiga e'tibor bering.
16. Qushlarning – tabiat sanitarlari, yashil o'simliklarning esa hayot uchun muhim modda – kislorod manbai ekanligini yodda tutib, ularning nobud bo'lishining oldini olish borasida faollik ko'rstaing.
17. Suv havzalarining toza bo'lishi va ularning turli axlat chiqindilari bilan ifloslanishining oldini olishga harakat qiling.
18. Atmosferani zaharli gaz (chunonchi, avtomobil, traktor, motosikl, shuningdek, turli chiqindi (shu jumladan, xazon)larni yoqish natijasida hosil bo'luvchi tutunlar bilan ifloslanishiga yo'l qo'ymang.
19. Jonli tabiatga ziyon yetkazayotgan tengdoshingizni bu yo'ldan qaytaring.
20. Har kuni uyquga yotishdan oldin o'zingizga quyidagi savolni bering: «Men tabiat muhofazasi yo'lida qanday harakatlarni amalga oshirdim?».

«Atrof-muhit va inson salomatligi» mavzusidagi amaliy tashviqot jarayonida yuqorida qayd etilgan eslatmalarning tadbir tashkilotchilari, mutaxassislar, shuningdek, boshlovchi tomonidan vaqti-vaqti bilan lavhalar vositasida takrorlanib turilishiga alohida e'tibor berilishi ularning yoshlar

tomonidan ijobiy qabul qilinishini ta'minlaydi. Shuningdek, tadbir yakunida ishtirokchilarining tadbirdan olgan taassurotlarini o'rganishi maqsadga muvofiqdir.

**Tadbir yakunida** faol ishtirok etgan ishtirokchilarni rag'batlantirish yoshlarda tarbiyaviy tadbirlarning uyushtirilishiga nisbatan qiziqishning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Taqdirlash uchun ajratilgan sovg'alarning ma'naviy qimmatga ega bo'lishi e'tiborga loyiqdir. Bunday sovg'alar sirasidan yoshlar ko'magida tabiiy o'simliklardan tayyorlangan buklet va gerbariyalar, ular tomonidan ekologik mazmunda yaratilgan ijodiy ishlarning o'rin olishi muhim ahamiyatga egadir.

## UMUMIY XULOSA

Ma'lumki, ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda pedagogik texnologiya XX asrning o'rtalarida joriy etila boshladi. Asrning so'nggi choragida YUNESKO tashkiloti tomonidan uni keng ommalashtirish bo'yicha ilmiy anjumanlar o'tkazish an'anaga aylandi. Mamlakatning ma'naviy, iqtisodiy salohiyatini oshirishda va ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda pedagogik texnologiyaning muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy asoslanmoqda.

Ammo ko'pgina mamlakatlarda pedagogik texnologiya ta'lim texnologiyasi yo'nalishida rivojlandi. Dunyo hamjamiyati mamlakatlarning hammasida ham tarbiya, ma'naviyat umumdavlat, umumxalq ahamiyatiga molik masala deb qabul qilinmagan. Natijada tarbiya jarayoni texnologiyasini o'rganishga kam e'tibor berilgan.

Bugungi kunda tarbiya texnologiyasini o'rganish eng muhim, dolzarb masaladir. Chunki Respublikamiz Prezidenti ta'kidlaganidek, «Biz bugun ayrim davlatlardan moddiy nuqtai nazardan orqada bo'lsak-da (bunga ko'pgina tarixiy ob'yektiv sabablar bor), ma'naviy nuqtai nazardan qaraganda ulkan g'urur bilan aytishimiz mumkin: buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan qadriyatlar va urf-odatlariga, nasl-nasabimiz va qonimizga singib ketgan buyuk hayotbaxsh kuchga egamiz. Bu borada ustunligimiz butun ma'rifiy dunyoda e'tirof etilgan» (Karimov I.A. Hushyorliika da'vat.- T.: «O'zbekiston», 30-31-betlar).

Darhaqiqat, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unga ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: «Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo falokat, yo saodat – yo halokat masalasidir» (Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq.- T.: O'qituvchi, 1992). Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq.

Shuningdek, demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatning barpo etish vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlod zimmasiga yuklanadi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning qator asar va nutqlarida mustaqil respublikada tarbiyani yo'lga qo'yish maqsadi va vazifalari belgilab berilgan.

Tarbiya – shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

Tarbiyaning pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyasiga muvofiq, endilikda o'quvchi tarbiya jarayonining ob'yektigina bo'lib qolmasdan, sub'yekti sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo'layotgan tashqi ta'sirlar va axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakun toradi.

Shaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga ega bo'lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldinda belgilangan va puxta o'ylangan rejalar asosida hal etib borilishi lozim. Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rin tutadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy buyurtmasi asosida belgilanib, uning amalga oshishi uchun ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi.

**Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda quyidagicha xulosa qilish mumkin:**

1. Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni bo'lib, har qanday tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo'lib kelgan.
2. Yosh avlod tajribasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiyani yo'lga qo'yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzum mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-niyatlari asosida belgilanadi.

3. Tarbiya jarayonining xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish oldinga qo'yilgan maqsadga erishish, shuningdek, bu boradagi vazifalarni ijobiy hal etish imkonini beradi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonida **quyidagi tavsiyalar, kelgusi vazifalar** muhim ahamiyat kasb etadi:

a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, reja va amal birligi hissini uygotish zarur;

b) o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatidan ogoh etish, chuqur bilim va tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, ularning ongini boyitish kerak;

d) umuminsoniy axloq me'yorlari (odamiylik, kamtarlik, o'zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatni yoqlash, insonparvarlik, axloqsizlikka nisbatan nafrat va xokazolar)ning mohiyatini anglatish, o'quvchilarda muomala odobi, yuksak madaniyatni qaror toptirishga erishish;

e) o'quvchilarda huquqiy va axloqiy me'yorlarga hurmat ruhida yondashish hissi va fuqarolik tuygusi, ijtimoiy burchga mas'ullikni qaror toptirish;

f) tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas'uliyatni tarkib toptirish;

g) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg'usini shakllantirish, o'zga millat va xalqlarni hurmat qilish, ularning huquq va burchlarini kamsitmaslik tuyg'usini qaror toptirish;

h) mustaqil davlat – O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish;

i) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning sha'ni, or-nomusi, qadr-qimmatini, huquq va burchlarini hurmat qilish kabilarga o'rgatish darkor.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: Sharq, 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat va yengilmas kuch.- T., "Ma'naviyat" 2008.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida - T., "O'zbekiston", 2011.
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997.
6. Karimov I.A. Hushyorliika da'vat.- T.: «O'zbekiston», 1998.
7. Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. - T, 2000.
8. Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq.- T.: O'qituvchi, 1992.
9. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-TDPU, 2003.
10. Azizxo'jayeva N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi.- TDPU, 2000.
11. Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 2005.
12. Ishmuhammedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - T., 2008.
13. Ishmuhammedov R. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T., 2010.
14. Ishmuhammedov R.J. Bolalarni tarbiyalash va sog'lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiyalar (o'zbek va rus tillarida). – T.: UDAP,2004.
15. Ma'murov B.B. Shaxs ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida. / "Uzluksiz ta'lim" jurnali, 2008 yil, №6, 16-19-betlar.
16. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. - T.: Jstiqolol, 2003.
17. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar – Qarshi.: Nasaf, 2000.
18. Ochilov M. Muallim qalb me'rnori: Saylanma. -T.: O'qituvchi, 2000.
19. Omonov NT. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: Iqtisod-moliya. 2009.
20. Pedagogika. /prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida.- Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010.
21. Pirmuhammedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.: 2001.
22. Rahmonqulova Z. va boshq. Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar xodimlarini o'qitish bo'yicha seminar modullari (Majmua).- T., 2010.
23. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. - T., Moliya nashriyoti, 2003.
24. Sayidahmedov N. Texnologik yondashuv ustuvorligi. //Ma`rifat, 2003, 19-fevral.
25. Safarova R. va boshq. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. – T., "FAN"

nashriyoti, 2005.

26. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: “Fan” nashriyoti, 2006.
27. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: “FAN VA TEXNOLOGIYA” nashriyoti, 2008.
28. Yo'ldoshev J.G' va boshq. Interfaol ta'lim – sifat kafolati (Bolaga do'stona munosabatdagi ta'lim).- T., 2008.
29. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi.- T.: “O'qituvchi”, 1998.
30. Xoliqov A. Pedagogik mahorat.- T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2011.
31. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - T., 2012.
32. Choriyev A. Yangi pedagogik texnologiyalar – Qarshi.: Nasaf, 2000.
33. Choriyev A. Pedagogika tarixi metodologiyasi.- T., 2010.
34. “Ta'limda axborot texnologiyalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – T. 2000.
35. “Pedagogika: muammolar, bahslar, yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – T. 2003.
36. “Maktabgacha ta'limda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi, “Qarshi Davlat universiteti” nashriyoti, 2010.